

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**



**IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI
PEDAGOGIKA.PSIXOLOGIYA**

O' Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

Bilim sohasi:	500000-Sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
	100000 - Gumanitar soha
Ta'lif sohasi:	510000 – Sog`liqni saqlash
	110000 - Pedagogika
Ta'lif yo'nalishi:	5111000 –Kasb ta'limi (5510500-Farmatsiya (farmasevtika ishi))

Toshkent-2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI

PEDAGOGIKA. PSIXOLOGIYA
FANIDAN O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 500000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
100000 - Gumanitar soha

Ta'lif sohasi: 510000 - Sog'liqni saqlash
110000 - Pedagogika

Ta'lif yo'naliishi: 5111000 - Kasb ta'limi (5510500-Farmatsiya
(farmasevtika ishi))

Umumiy o'quv soati - **65** soat

Shu jumladan:

Ma'ruza - **18** soat (3-semestr)

Amaliy mashg'ulot – **18** soat (3-semestr)

Mustaqil ish – **29** soat (3-semestr)

Toshkent - 2020

O'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2019 yil "25" 04 dagi 107-sonli buyrug'i bilan (buyruqning 3-ilovasi) tasdiqlangan "Pedagogika. Psixologiya" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

L.B.Sultonova
D.O.Kamolova

Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

A.S.Kaldibekova-


Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
"Umumiy pedagogika" kafedrasi dotsenti, p.f.n

A.I.Rasulov-

O'zbekiston milliy universiteti Psixologiya kafedrasi
dotsenti, Psixologiya fanlari nomzodi

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Ijtimoiy fanlar soha uslubiy Kengashining 2020 yil 30.06 dagi 20-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Soha uslubiy kengash raisi:

 **K.K. Ismailov**

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdqlandi


2020 yil 07.07 dagi 12-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi:

 **Z.A. Yuldashev**

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi institut Kengashida 2020 yil 09. 07dagि 12-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga taysiya etilgan.

Kengash kotibi :

 **V.R.Xaydarov**

MUNDARIJA

Kirish.....	5
I.O'quv materiallari:	
Ta'lism-tarbiya usullari va vositalari	6
Pedagogik texnologiyalari.....	33
Pedagogik nazorat va ta'lism sifatini baholash.....	43
Muloqot va nutq.....	53
Boshqaruv psixologiyasi	67
Rahbar qobiliyatining psixologik komponentlari	79
II.Amaliy mashg`ulotlarning mavzular va vazifalar:	
Ta'lism-tarbiya usullari va vositalari.....	86
Pedagogik texnologiyalari.....	93
Pedagogik nazorat va ta'lism sifatini baholash.....	95
Muloqot va nutq.....	98
Boshqaruv psixologiyasi	106
Rahbar qobiliyatining psixologik komponentlari	107
III.Glossary.....	109
IV.ILOVALAR:	
Fan dasturi.....	123
Ishchi dastur.....	124
Tarqatma materiallar.....	136
Testlar.....	141
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	145

KIRISH

“Pedagogika. Psixologiya” o`quv-uslubiy majmuasida Farmatsevtika instituti talabalari pedagogika va psixologiya fanidan egallashi kerak bo`lgan nazariyalar, davlatimizning ta’lim sohasidagi islohatlari hamda qiziqarli ilmiy ma’lumotlari joy olgan.

2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi o‘rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bergen eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta’lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi.


Jumladan O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘grisida”gi qaroriga muvofiq oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini belgilashga oid 3069 Adliya vazirligi tomonidan nizom ishlab chiqildiki talabalar bilimini baholashda ularni imkoniyatidan, individual holatidan kelib chiqish, baholashda shaffovlikga rioya qilish hamda professor-o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida baholashdagi qiyinchiliklarini bartaraf etish muhim masala sifatida qaralgan.

Aynan ta’lim tizimini rivojlantirishda oliy ta’limning alohida o‘rnii mavjud bo‘lib, undan yetishib chiqayotgan kadrlar zamon talabiga mos vazifalarni bajarishida pedagogikaning o‘rnii beqiyosdir. Pedagogika va psixologiya majmuasida shaxsning biologik va psixologik rivojlanishi, shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, hususiyatlari, tarbiya jarayonlarining mazmun va mohiyati, tarbiyaning maqsad va vazifalari, tarbiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari, tarbiya turlari, tarbiyaviy ta’sir etish usullari, vositalari va uni amalda qo’llash shakllari, tarbiya qoidalari va tamoyillari, tarbiya usullari haqida tushuncha, ta’lim (pedagogik) texnologiyalari va pedagogik mahorat asoslari, didaktika haqida tushuncha, ta’limning mazmuni: malaka talablari, o‘quv rejasi, dasturi, pedagogik texnologiyalar haqida tushuncha.pedagogik, ta’lim (pedagogik) texnologiyalari va pedagogik mahorat asoslar, pedagogik mahorat haqida tushuncha, pedagogik qobiliyatlar va pedagogik texnika, muloqat o‘rnatishda psixologik aspektlarni inobatga olish kabi masalalarni o‘z ichiga olgan va bu o‘z navbatida ta’limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi pedagogik va psixologik vazifaslarni bajaradi

I. O`QUV MATERIALLAR

MAVZU: TA'LIM-TARBIYA USULLARI VA VOSITALARI.

(4SOAT)



Reja:

1. Ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari.
2. Ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Ta'lim va tarbiya metodlarining o'quv jarayoniga ta'siri.
4. Ta'lim va tarbiya vositalari.

Tayanch tushunchalar: *tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiyaning maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiyaning umumiy vazifalari, tarbiya turlari, tarbiya qonuniyatları, tarbiya tamoyillari.*

kibernetik, sotsiologik, tashkiliy qonuniyatlar kiradi.

Ta'lim tamoyillari. Ta'lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadi.

Ta'lim yamoyillari o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilab beruvchi boshlang'ich qoidalardir.

Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhg'a ajratish mumkin: ta'limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta'lim mazmuniga aloqador tamoyillarga quyidagilar kiradi: insonparvarlashtirish; tabiat bilan uyg'unlik; madaniyat bilan uyg'unlik; ilmiylik; ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi; ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi.

Ta'limni insonparvarlashtirish - uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yunaltirishdir.

Shaxsning rivojlanishi va o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirot etishga jalb etish, uning bilish bilan qo'shilushi va madaniyatni o'zlashtirishi hamma-hammasi so'nggi yillarda sezilarli shakllandi. Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi aldam-

qaldamlik, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat' iy belgilash, ularga qattiq ta'sir etish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo'lman qarashlardan voz kechish yordamida ko'plab innovatsiyalar yo'naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama-qarshi o'laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo'naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalaridan foydalanish, «ta'limni insonparvarlashtirish», ya'ni insonparvarlik tamoyili yuzaga chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta'lim esa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya'ni tabiat bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. Ta'limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish holatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat. Ta'lim butun umr davom etadi va ta'lim olish chegaralanmaydi. U insonga o'z dunyosi va boshqa madaniyatatlarni anglash, mazkur madaniyat vakillari fikrini eshita olish, ularni qadrlash, ularning dunyosini tushunish, o'zining shaxsiy fikriga tayanish, o'zining bu yorug' olamdag'i mavjudligini anglash va o'zining hayotdagi, madaniyatdagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Ta'limning bugungi kundagi ma'nomantig'i ham ana shundadir.

Ta'lim o'zini madaniyatlar dunyosida faraz qilish orqali insonda olam manzarasini yaratish, insonning tabiat, boshqa odamlarga, jamiyat, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimini shakllantirish sifatida qaraladi. Inson o'zining ongi, irodasi, his-tuyg'usi, bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, buning natijasida individual ijodiylik shakllanadi. Bunday individuallikning namoyon bo'lishining o'ziyoq nafaqat madaniyatning merosiyligi, iste'mol qilinishi, balki rivojlanishini ham anglatadi. Bunday tushunish pedagogikadagi yangi paradigma - shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tashkil etuvchi jamiyatdagi yangicha qadriyatlar - shaxsning o'zini-o'zini rivojlanirishi, o'ziga-o'ziga ta'lim berish va o'zini-o'zi loyihalashning

namoyon bo‘lishini aks ettiruvchi madaniyat bilan uyg‘unlik tamoyilini shakllanishiga olib keladi.

Ta’limning ilmiylik tamoyili - o‘quvchining o‘quv materialidagi qonuniyatlarini aks ettirishi, tushunishi va o‘zlashtirishi uchun to‘g‘ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta’lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darjasи, jahon sivilizatsiyasi to‘plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta’lim vaqtida va o‘qishdan tashqari vaqtida amalga oshiriladigan ta’lim mazmuni o‘quvchilarini ob’yektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishini talab etadi.

Ta’limning fundamentalligi va amaliy yo‘nalganligi tamoyilining ahamiyati shundaki, umuiy o‘rta ta’lim maktablaridayoq o‘quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o‘tadilar. Mazkur holat an’anaviy didaktikada ta’limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. O‘qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to‘liq va chuqur bo‘lishini ko‘zda tutadi. U yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko‘rinishda bo‘lishi, bilimlarini doimiy ravishda to‘ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanganlik bilan tavsifalanadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko‘proq uning fikrlash layoqatiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o‘zaro nisbatda bo‘lishni talab etadi.

Ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Ta’lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o‘quvchilarining qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog‘liq.

Ta’lim olish va axloq: Skinnerning “qonunni ijobjiy tarzda mustahkamlash” nazariyasi. Bir nazariyachining ishi nafaqat talabalarga maktablarning va o‘qituvchilarining munosabati usullarini o‘zida aks ettirdi, balki jarayonga ichki hissiyot bilan qarashni o‘stiradi. Umumiy (masalan, maktabdagisi ham ichki, ham tashqi vazniyatni) rivojlantirish yuz berishi va vaziyatni nazorat qilishni o‘rganib chiqqan

bu nazaryotchi Byurhis Fredrik Skinnerdir (1953). Skinnerning ko‘plab nazariyalari makraziy ko‘rish atrofida aylanadi, insonlar “to‘g‘ri javobgarliklar” yoki javobgarliklar, ya’ni potentsiyal vaziyatlarda “to‘g‘ri javobgarliklar”ning (ba’zida “ta’sir etuvchi qobiliyat” deb aytiladi) dalili bo‘lib, ko‘rinishi orqali yaxshi o‘rganadilar. Torndikning “qonunning ijobiy ta’siri” (Torindik 1914)dan ilhomlanib, Skinner o‘zining “qonunni ijobiy tarizda mustahkamlash” deb nomlangan dasturini ishlab chiqdi. Dastur agar kattalarning hulq-atvori yoshlarga o‘rnak bo‘larli bo‘lsa, ular maktab o‘quvchilariga va ularning mukofotlash, o‘rnak qilib ko‘rsatish g‘oyasini ham o‘z ichiga olgan. Bugungi kunda bunday mukofotlar “ahloqi uchun baho” jamoatchilik maqullagan va ijtimoiy imtiyozga ega bo‘lgan bir qancha shakillar tarkibiga kiradi.

Skinnerning nazariyasi nafaqat sinfxonasidagi yuqori darajada ijobiy ko‘tarinkilikning muhimligiga, balki o‘quvchilarning tashqi tarafdan qo‘yilgan maqsadlariga qadam ba qadam intilishlari uchun yuqori strukturaviy materiallardan foydalanishlariga ham urg‘u beradi. chunki Skinner xato qilish haqida quydagicha fikr yuritadi, tushkunlikka solish yoki istakni so‘ndirish, o‘quvchilarning o‘quv jarayonlariga xalaqt berishi xato, u bu kabi materiallar ehtimollikdan imkon qadar uzoq, xatolikdan holi bo‘lishining tarafdoi. O‘ta strukturalashgan, “stsenariylashtirilgan” – o‘qituvchilar tilida oldindan belgilab qo‘yilgan va kamdan-kam sezilarli tarzda og‘ishgan dars shakli aniq belgilab qo‘yilgan qolipga bog‘liq bo‘ladi. Ba’zan buni keng tushinish mumkin, bugungi kunda muhokamali mavzu “an’anaviy” tarzda dars o‘tish, ya’ni o‘qituvchi boshlashi (bunga, masalan, belgilab olingan savollarni so‘rash yoki oddiy qo‘llanmani taqdim qilish), o‘quvchi javob berishi bo‘lib qolmoqda.¹

Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillariga quyidagilar kiradi: ta’limning tizimliligi va izchilligi; ta’limda onglilik, faollik va mustaqillik; ko‘rsatmalilik; ta’limning o‘quvchilarga mos bo‘lishi; ta’limda bilim ko‘nikma va malakalarni puxta va ^ **mustahkam o‘zlashtirish tamoyili; tushunarlik.**

Ta’limning tizimliligi va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o‘quv materialini mustahkamlash va ilgari o‘tilgan materiallarni to‘ldirishga xizmat qilishini, o‘quvchilarning uzluksiz va tizimli suratda mustaqil ish

¹Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinci nashr. 2012. 3-4 betlar.

olib borishlarini, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim va hosil bo‘lgan ko‘nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o‘z ichiga oladi.

Izchillik ta’lim mazmuni, uning shakli va usullari, o‘quv jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan subyektlarning o‘zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis - qisman) va xususiy o‘quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o‘rtasidagi bog‘ liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o‘zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o‘quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta’lim jarayonining ma’lum tizim va ketma-ketlik asosida bo‘lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o‘rganmay turib hal etib bo‘lmaydi.

Tizimlilik va ketma-ketlik u yoki bu o‘quv materialini o‘zlashtirish sur’ati, uning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta’limning tizimliliği va ketma-ketligi ma’lum fanlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o‘rtasidagi qaramaqarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog‘liqliknini ta’minalash evaziga namoyon bo‘ladi.

Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili o‘qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o‘quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo‘llash usullarini ongli va faol egallab olishlari lozim. Bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog‘liq: o‘quv motivlari, o‘quvchilarning faollik darajasi, o‘quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o‘qituvchi tomonidan qo‘llanuvchi ta’lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O‘quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Mazkur tamoyil o‘quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ta’limda ko‘rsatmalilik tamoyili o‘qitish jarayonini sifatini oshiradi, o‘quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning “oltin qoidasi” deb atagan. Unga binoan ta’limda inson sezgi orgalaridan foydalanish kerak. «Agarda biz o‘quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko‘rish bilan ta’limga intilishimiz kerak - deb ta’kidlaydi u - agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo‘lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o‘rganilsin».

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa - 25%ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 % gacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarining dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish tamoyili deganda o'quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarining jismoniy rivojiga, umumiyligi tayyorgarligiga - saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo'lishi tushuniladi.

Yoshiga muvofiq yondashish o'quvchilarining psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy etukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi o'quvchilarining yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o'quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o'quvchilarining murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'p turdag'i sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

Ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili muhim didaktik talab va qoidalarni, ya'ni o'quvchilar tomonidan tizimli va ongli o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab qolish hamda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o'z turmush faoliyatlarida qullay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g'oyalar, qoidalar, tushunchalar, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarligi tamoyili o'quvchilarining mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomon ta'sir etuvchi intellektual va emotsiyal qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi o'quvchilarining yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash

demakdir, ya’ni, har bir o‘quv fani bo‘yicha o‘quvchilar egallab olishi zarur bo‘lgan bilim, amaliy ko‘nikma va malakalari hajmini to‘g‘ri aniqlashdir. Bu tamoyil o‘quv jarayonini o‘quvchilarda qiyinchiliklarni engish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg‘usini yuzaga keltirishga yo‘naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko‘zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o‘quv masalalarini echishdagi ishonchsizlikni yo‘qotishga yordam beradi.

Zamonaviy didaktikada ta’lim metodlari tasnifiga turlichayondashuvlar. Didaktik tadqiqotlar ko’rsatadiki, ta’lim metodlari nomenklaturasi (nomlanishi) va tasnifi ularni ishlab chiqishda tanlanganyondashuvga bog’liq holda juda xilma-xil ekanligi bilan xarakterli. Ulardan eng muhimlariga to’xtalamiz.

Ta’lim metodlari tasnifi:

An’anaviy (manbasiga ko’ra) ta’lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)

Og’zaki	Ko’rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Video-metod
Hikoya	Illyustratsiya	Mashq	O’qish	Ko’rish,
Suhbat	Demonstratsiya	Amaliy	O’rganish	O’rganish,
Tushuntirish		Laboratoriya	Reja tuzish	Nazorat
Ma’ruza		Didaktik o’yin	Konspekt qilish	qilish
Munozara				

O’quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko’ra ta’lim metodlari tasnifi (I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin).

Ta’lim metodining nomlanishi	O’qituvchi faoliyati	O’quvchi faoliyati
Axboriy-	O’quv axborotini	Bilimlarni idrok

retseptiv	uzatish, o'rganilayotgan ob'ekt bilan o'quvchi harakatini tashkil etish	etish, anglash va yodda saqlash.
Reproduktiv	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish	Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash.
Muammoli bayon etish	Muammoni qo'yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqnı idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o'z-o'zini nazorat qilish
Evristik (qisman-izlanish)	Muammoni qo'yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma- ketligini rejalatirish. O'quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo'yilgan vazifa bilan bog'liqlikda muammoni hal etish yo'llarini mustaqil izlash va o'qituvchining qisman ko'magi yordamida muammoni hal etish
Tadqiqotchilik ka doir	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish.

**Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi
(M.A.Danilov va B.P.Esipov):**

- Yangi bilimlarni egallash metodlari;
- Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- Bilimlarni amaliyotda qo'llash metodlari.

O'rgatish metodlari	O'rganish metodlari
Axboriy-ma'lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko'rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

Ta'limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).

**Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari tasnifi
(Yu.K.Babanskiy):**

- Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Interfaol metodlar va grafik organayzerlar.

O'rganilayotganlar ini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilg anlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
<p>Erkin yozish.</p> <p>Klaster.</p> <p>Aqliy hujum.</p> <p>B-B-B chizmasi.</p> <p>Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi.</p> <p>Semantik xususiyatlar tahlili.</p>	<p>Semantik xususiyatlar tahlili.</p> <p>B-B-B chizmasi.</p> <p>O'qitish bo'yicha qo'llanma.</p> <p>Bir-biriga o'rgatish.</p> <p>Bir-biridan so'rash.</p> <p>Ikki qismli kundaliklar.</p>	<p>Eng asosiy tushunchalar, takrorlash.</p> <p>T-chizma.</p> <p>Kontseptual jadval.</p> <p>Venn diagrammasi.</p> <p>Nilufar guli.</p> <p>Besh minutlik esse.</p> <p>O'n minutlik esse.</p>

Ta'lim metodlarining mohiyati va mazmuni.

Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasи ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o'quvchilarining yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarining mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lif metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lif jarayonida ko'p funktsiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollilikni yuzaga keltiradi. Suhbat

o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi. Suhbat – faoliyatni endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lif metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan batafsil o'yplash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rnlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiylashtirish xulosaga kelinadi.

Suhbat ko'proq o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi.

Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniadi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko'zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

Ma'ruza – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimliligi. Maktab ma'ruzasi mazmunini murakkab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma'ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo'llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olish mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konseptlash)ga o'rgata boradi.

Ta'lif sifati va samaradorligini ta'minlashda **ko'rgazmali metodlar** ham alohida ahamiyatga ega.

Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog’liq bo’lsada, didaktikada alohida o’rganiladi. Illyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko’rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko’rsatishni taqozo etadi.

Namoyish (demonstratsiya) metodi o’rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo’l keladi va ayni chog’da predmetning tashqi ko’rinishi va ichki tuzilishi haqida to’laqonli ma’lumot berishda keng qo’llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko’rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o’zaro munosabatlari)ga e’tibor qaratiladi, so’ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o’rganishga o’tiladi. Ko’rsatish ko’p holatlarda o’rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi.

Amaliy metod – o’zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo’naltirilgan jarayonda qo’llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyatda qo’llash ko’nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar – maktab er maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o’qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo’riqnomaga yoki maxsus ko’rsatmani o’quvchilar e’tiboriga havola etadi.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko’nikmalarini egallash yo’lidagi ko’p marta takrorlanishlar bo’lib, mashqsiz ko’nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og’zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo’linadi.

Laboratoriya ishlari o’quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, quroq hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o’tkazish metodlari bo’lib, ular ko’proq tabiiy fanlar asoslarini o’rganishda qo’llaniladi. Bu metod o’quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko’rish, o’lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko’nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtini sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o’quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o’lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Didaktik o’yin o’rganilayotgan ob’yekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o’quvchining bilishga bo’lgan qiziqishi va faollik

darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi.

Ta'lism metodlarini tanlash. Pedagogika fanida, o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lism metodlarini tanlashga o'quvtarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lism metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- Ta'limgning umumiyligi maqsadlari.
- Fanning va o'rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o'ziga xosliklari.
- Biror fanni o'qitish metodikasining o'ziga xosliklari.
- Materialni o'rganishga ajratilgan vaqt.
- O'quv mashg'ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
- O'quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
- O'quvchilarning tayyorgarlik darajasi.
- Ta'lism muassasasining moddiy ta'minlanganligi.
- O'qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

Ta'lism vositalari. Ta'lism metodlari ta'lism vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Ta'lism vositalari – bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan ob'yekt. Ta'lism vositalari katta ahamiyatga ega. Ta'limgning barcha vositalari ta'lism maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi.

Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi.

Ta'lism vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odadta ular ta'lism metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar «qanday o'qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida niamani o'qitish» savoliga javob beradi.

An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lism vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriylar, axborot vositalari, o'quv jarayonini tashkil eti shva boshqarish vositalari kiradi.

Didaktik vositalar metodlar singari ta'limiyligi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funktsiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o'quvchilarning o'quv-

bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta'lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi.

Fanni o'qitish bilan bog'liq holda ta'lim vositasi tanlanadi. O'qituvchi o'zining ixtiyori bo'yicha ko'rgazmali material, o'quv qo'llanmadan foydalanishi mumkin. Ta'lim vositasini qo'llashning yana bir jihatni albatta ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir.

Ta'lim vositasini tanlab olish ta'lim metodini tanlab olish bilan bog'liq. Agar ta'limning faol metodi(kitob bilan ishslash, mashqlar) foydalansilsa, u holda o'quv qo'llanmalar, darsliklar va ta'limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta'limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi.

Ta'limning faollikni nisbatan kam talab etadigan metodlari(o'quvchilar eshitadi, ya'ni hikoya, ma'ruza, tushuntirish, ekskursiya) ta'limning ko'rgazmali vositalaridan foydalaniladi. Ta'limning ko'rgazmali vositalari pedagogning o'zi tomonidan tuzilgan bo'lishi mumkin.

Vositalarning istalgan turidan foydalanishda o'lchov va mutanosiblikka e'tibor berish kerak. Masalan, ko'rgazmali vositalarning soni etarli bo'lmasligi bilimlarning sifatiga ta'sir ko'rsatadi, bilishga qiziqishni pasaytiradi, obrazli idrok etishni rivojlantirmaydi. Ulardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarning o'rganilayotgan fanga engil-elpi qara-shiga olib keladi. Murakkab mavzularni o'rganishda 4-5 demonstratsiya optimal hisoblanadi.

Ta'lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo'lishi mumkin emas. Ta'lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birligida qo'llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. O'qituvchining vazifasi – dars jarayonini faollishtirish uchun ta'limning samarali vositasini tanlab olishdir.

Ta'lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko'ra yondashish mumkin:

- faoliyat sub'yektiga ko'ra;
- faoliyat ob'yektiga ko'ra;
- o'quv axborotiga munosabatiga ko'ra;
- o'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra.

Faoliyat sub'yekti bo'yicha ta'lim vositalari o'rgatish va o'rganishga bo'linadi.

O'rgatish vositalari. Masalan, namoyishli-tajriba qurollari. Bunday qurollar o'qituvchi toionidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

O'rganish vositalari. Masalan, laboratoriya-praktikum qurollari. Bunday vositalar o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo'llaniladi.

Didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchi uchun xosligiga qarab, ikkiga bo'linadi. Birinchisiga ko'ra, narsalar o'qituvchi tomonidan ta'limning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo'llanilsa, ikkinchisi – bu o'quvchilarning individual vositalari, darsliklar, daftarlari. Bundan tashqari didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyat turiga ko'ra sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuterlarga ham bo'linadi.

Faoliyat ob'yektlari bo'yicha ham ta'lim vositalari ikkiga bo'linadi:

Material ta'lim vositalari. Bu o'quv qo'llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o'quv-texnik vositalar, mebel, o'quv-laboratoriya qurilmalari, ko'rgazmali vositalar bo'lishi mumkin.

Ideal ta'lim vositalari – bular pedagog va o'quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo'llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san'at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar – bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda ko'rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya – abstrakt simvollar tarzida ko'rsatiladigan vosita(grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya – nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vosita(tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

Material va ideal vosita bir-birini to'ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg'otish, amaliy harakatlarni amalga oishirish bilan bog'liq bo'lsa, ideal vositalar – mantiqiy muhokama. Materialni tushunti-rish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog'liq.

O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra ta'lim vositalari yangi materialni o'rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazoart qilish vositalari, o'quv jarayonini tashkil eti shva boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo'linadi.

O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra ta'lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o'quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O'quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta'lim – kommunikatsiya (muloqot) o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya – bu kodlash (o'qituvchi nutqidagi atamalarda),

uzatish (yozilish) va o'quvchilarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish).

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog'liqlikka ko'ra didaktik vositalar vizual (ko'rish) – haqiqiy(original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; audial(eshitish) – radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual(ko'rish-eshitish) – ovozli filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

Ta'limning texnik vositalari. TTV – bu o'zida o'quv-axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga quyidagilar kiradi: o'quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmalari; radioeshittirish; teleko'rsatuvalar.

Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash(kombinatsion); trenajyor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar.

Ta'limning texnik vositalari quyidagi **funktsiyalarni** bajaradi:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;
- o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- o'quvchilarda bilimlarni egallahsga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarining axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan o'quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta'minlaydi;
- bilimlarni nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilishni ta'minlaydi.

1. Tarbiya jarayonining mohiyati, ahamiyati va vazifalari.

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyanı tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi.

Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarining

maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda ta’lim oluvchilarining egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- jamiyat a’zolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos etarlicha hajmdagi “inson kapitali”ni tayyorlash;
- Smadaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash;
- ma’lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya jarayonining qonuniyatları va tamoyillari. Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va ta’lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

2.Tarbiya jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- ❖ maqsadga yo‘naltirilganligi;
- ❖ ko‘p qirrali jarayon;
- ❖ uzoq muddat davom etishi;
- ❖ uzluksizligi;
- ❖ yaxlitligi;
- ❖ variativligi;
- ❖ natijalarning oldindan aniqlanmasligi;
- ❖ ikki tomonlamalilik;

3.Tarbiya qonuniyatları - bu bir tomonidan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomonidan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatları mavjud:

- ⊕ ijtimoiy muhitning ob’ektiv va sub’ektiv omillariga bog‘liqligi;
- ⊕ tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o‘zaro bog‘liqligi;
- ⊕ faoliyat va munosabatni e’tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli azilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;

- tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy ta’siri, o‘zaro munosabatlari amda faol faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanish;
- tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning intensivligi;
- tarbiyalanuvchining “ichki olami”ga ta’sir etishning intensivligi;
- tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta’sirni hisobga olish.

Tarbiya tamoyillari - bu tarbiyaviy ishning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

- maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog‘liqligi;
- tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko‘rish;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo‘shib olib borish;
- o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta’sirlarining birligi;
- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiya j arayonining tizimligigi va uzlucksizligi.

Tarbiya turlarining umumiyligi tavsifi. Tarbiya turlari turli sohalarga ko‘ra tasnif etiladi. Ko‘proq umumlashgan tasnif o‘zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning turli yo‘nalishlari bilan bog‘liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo‘linadi. Institutsional belgilariga bo‘yicha oila, ta’lim muassasasi, ta’lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta’lim muassasalaridagi tarbiyaga bo‘linadi.

Herbert Spencer - ingliz olimi “Tarbiya - bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlashning amaliy jarayonlarini o‘z ichiga olishi kerak” - deb yozadi, va "bolaning yashash sharoitlari uning shaxs sifatida ulg‘ayishiga bog‘liqligi, ta’sirini misollar orqali keltiradi. O‘zining "Butun shaxsni rivojlantirish" kitobida tarbiyaning aqliy, axloqiy va jismoniy turlarini ko‘rsatib o‘tib, ulardan eng asosiysi

axloqiy tarbiyadir deb ta'kidlaydi.²(The elements of teaching. Jems M. Banner. Gardners Books.)

Ta rbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko'ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy kontseptsiyalar bilan bog'liqlikda pragmatik, aksilogik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

1. Tarbiya turlarining umumiyl tavsifini bayon eting.

Tarbiya metodlari tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari yig'indisidir.

Tarbiya usullari - umumiyl metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar - bu qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o'zining tarbiyalanuvchilari bilan yo'l ochadigan o'r ganilmagan so'qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo'llar - metodlarga aylanishi mumkin.

Tarbiya usullari - umumiyl metodning bir qismi, alohida harakati

Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullara deganda ta'sir ko'rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig'indisi tushuniladi. Vosita - bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat - tarbiya vositasi, biroq uni ko'rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko'rsatish - bu usullar. So'z (keng ma'noda) - tarbiya vositasi, biroq replika, taqqoslash - usullar. Bu bilan bog'liqlikda ba'zan tarbiya metodlari qo'yilgan maqsadni muvaffaqiyatl amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo'ladi.

Tarbiya vositalari - bu usul ham emas, metod ham emas, usullar yig'indisi.

2.Tarbiya metodlari tasnifi. Zamonaviy pedagogikada ba'zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba'zilari faqat nazariy vazifalarni o'zida aks ettiradigan o'nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o'ziga xos xarakteriga ko'ra ishontirish, mashq, rag'batlantirish va tanbeh berishga bo'linadi. Mazkur holatda metodning umumiyl xarakterli belgisi o'ziga xoslikni, qo'llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko'proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiyl metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o'zida ishontirish, faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning

²The elements of teaching. Jems M. Banner. Gardners Books.

xulq-atvorini rag‘batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S.Mariyenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlari quyidagicha nomlanadi: tushuntirshli- reproduktiv, muammoli vaziyatli, o‘rgatish va mashq metodlari, rag‘batlantirish, to‘sinqinlik qiluvchi, boshqarish, o‘zini-o‘zi tarbiyalash.

Skinner nazariyasi o‘qitish va ta’lim olish jarayonida o‘qituvchilarning o‘zlarini hulq-atvorlari muhim bo‘lmagan rolda ekani uchun tanqid qilinadi, bu mavzuda gap ketganida unga e’tibor berishga chegara qo‘yilgan, bu o‘rinda jazo tayinlash va mukofotlashdan ko‘ra ko‘proq, deydi, o‘qituvchilar o‘zlari (Men termini 5-bo‘limda to‘lar oq yoritilgan) namuna bo‘lishlari zarur. Bu “ahloq o‘ynini o‘ynash”ni istamayotgan o‘quvchilar – mehribonlik ko‘rsatilmagan yoki, ular ta’limda omadga erishmagan, yo ular o‘qituvchi tomonidan maqtab, yo koyilmagan – bilan yuzaga kelgan muammoni hal qilishishart bo‘lgan o‘qituvchilarga kichik yordam taklif qiladi.³

Tarbiyalanuvchilarga ta’sir etishi natijalariga ko‘ra metodlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- Axloqiy me’yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g‘oyalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi.
- Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta’sir etuvchi.

Hozirgi vaqtda o‘zida tarbiya metodlaridagi yagona maqsad, mazmun va tartiblilikni aks ettiruvchi ko‘proq ob’yektiv va qulay metodlar qo‘llaniladi. Ana shunday tavsif bilan bog‘liqlikda tarbiya metodlari uch guruhga bo‘linadi:

- **Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar.**
- **Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlari.**
- **Xulq-atvorni va faoliyatni rag‘batlantirish metodlari.**

Shaxs ongini shakllantirish metodlari o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlar, e’tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg‘usi va irodasiga ta’sir ko‘rsatish usullari sanaladi.

Shaxs ongini shakllantirish (ishontirish) metodlariga quyidagilar kiradi: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma’ruza, etik suhbat, nasihat, o‘git, ko‘rsatma, munozara, namuna.

³Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinci nashr. 2012. 5 bet.

Bu guruhgaga mansub metodlarning mohiyati shundaki, ular orqali o‘quvchilar ongiga jamiyatda ustuvor o‘rin tutuvchi ijtimoiy g‘oya va maqsadlar singdiriladi. O‘ quvchilarda g‘ oyaviy onglilik va ijtimoiy faollik, ya’ni, davlatning ichki va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko‘nikmalarini tarbiyalash lozim.

Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko‘p ishlatiladigan metoddir. Tushuntirishning vazifasi o‘quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g‘urur tuyg‘usiga ega bo‘lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Suhbat. O‘quvchi shaxsini g‘oyaviy va ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o‘qituvchining jonli so‘zi eng ta’sirchan metod hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o‘quvchilari uchun dolzarbligi, o‘quvchilarning suhbat mazmuniga bo‘lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur.

Hikoya. O‘ quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me’yorlari, xalq o‘tmishi, tabiiy boyliklar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san’at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari - radio, televidenie, gazeta va jurnallar sahifalarida hamda Internet matbuotida e’lon qilingan ma’lumotlar ham o‘quvchilar uchun qimmatli material bo‘lib xizmat qiladi. Namuna. O‘quvchilar o‘z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko‘rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

O‘qituvchining shaxsan o‘zi namuna bo‘lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘qituvchining darsda va hayotda o‘zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o‘z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O‘quvchilar o‘zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba’zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o‘zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qaerda bo‘lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so‘zi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo‘lmasligi kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari. O‘quvchida o‘z-o‘zini tarbiyalashga, ya’ni, o‘z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin.

Tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobjiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarning kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq- atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat usuli.

Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish (mashq) metodlari: mashq, pedagogik talab, ijtimoiy fikr, topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat.

Mashq va o‘rgatish metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O‘rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

Topshiriq o‘quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan usul. O‘quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo‘lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‘z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas’uliyatni his etishga o‘rganadilar, mehnat qilish o‘quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma’lum harakatlarni rag‘batlantiruvchi yoki to‘xtatuvchi hamda o‘quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Faoliyatni rag‘batlash va motivatsiyalash metodlari: rag‘batlantirish, tanbeh berish, uyaltirish.

Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usulidir. O‘qituvchi har bir o‘quvchi shaxsida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni anglash olishi zarur.

Tanbeh berish - eng muhim jazo chorasi. O‘qituvchi o‘quvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo‘yish mumkin.

Uyaltirish - o‘quvchining ma’lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiya uchun mas’ul bo‘lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm- hayodir. Odamda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo‘lsa, avvalo, o‘zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo‘ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg‘ularni ehtiyojkorlik bilan o‘stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizirtiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o‘z o‘rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

3.Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari. Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘ liq:

Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur.

Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘ lash g‘ oyat muhimdir.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

U yoki shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liqlikda amalga oshiriladi. Yosh bu oddiygina qara yashaganligi son ko‘rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darjasini o‘z aksini topadi. Aytaylik, mas’uliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda hai shakllantirish mumkin. Biroq ha8 bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi.

Jamoaning shakllanganlik darajasi. O‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog‘liqlikda pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari hai o‘zgarmasdan qiyoiayoayo. Bizga ma’lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

Tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xosliklari.

Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o‘zi tarbiyaviy o‘zaro ta’sir etishning asosi bo‘la olmaydi. Ularga individual va shaxsiy tuzatishlar kiritish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o‘ziga xosligini rivojlanishiga, o‘ziga xosligini saqlashga, o‘zining «Men»ini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan metodlarni qo‘llashga harakat qiladi.

Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitargigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma’lumki, mavhum shart-sharoitlar bo‘lmaydi, ular hamisha aniq. Ularning birlashuvi aniq holatlarda ko‘rinadi. Tarbiya amalga oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar deb ataladi.

Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog‘langan va birgalikda qo‘llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo‘llash uchun zaruriy yordam beruvchi ko‘rgazmali qurollar, tasviriy san’at asarlari va musiqa san’ati, ommaviy axborot vositalari.

Tarbiya vaqt. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo‘lsa, «kuchli harakatga keltiradigan» metodlar qo‘llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «oddiy» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatga keltiradigan» va «oddiy» metodlarga bo‘linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o‘rgatish bilan bog‘liq.

Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bo‘lishi kerak. Buning uchun qo‘llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko‘ra bilish kerak.

Dunyoqarash haqida tushuncha. **Dunyoqarash kishilarning turmush tarzi, hayoti, axloq-odobi, madaniyatini yanada o‘zida mujassamlashtirgan tasavvurlar, bilimlar yig‘indisidir.**

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzlusiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol

ishtirok etishi, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishi muhim o‘rin tutadi.

E’tiqod dunyoqarash negizada aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko‘rinishi; muayyan g‘oyaga cheksiz ishonch bo‘lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi.

Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko‘ra o‘zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinci bosqichda ma’naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko‘rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda, e’tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma’naviy-axloqiy tamoyil bo‘lib qoladi. O‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo‘llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e’tiqodga aylanadi.

2.O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy vositalari. Agar uning qarashlari tizimi ong birligiga tayansa, inson dunyo haqida bir butun tasavvur hosil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, dunyoqarashni shakllantirish shaxsning intellektiga, irodasiga, histuyg‘usiga, uning amaliy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘ liq.

O‘quvchilaming ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy vositalari: intellektual tarkibiy qism, ijobiy emosional holat, amaliy faoliyat sohasi, fanlararo aloqadorlik, pedagogning ijtimoiy va kasbiy pozisiyasi.

Dunyoqarashning intellektual tarkibiy qismi borliqni bevosita hissiy aks ettirishdan, abstrakt tushunchali fikrlashgacha bo‘lgan harakatni talab etadi.

Pedagogning ijtimoiy va kasbiy pozisiyasi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning muhim omili sifatida aks etadi. Dunyoqarashni shakllantirishning muvafaqqiyati ko‘pincha, o‘quvchilarning o‘qituvchiga ishonchiga asoslanadi.

3.Aqliy tarbiyaning mazmun-mohiyati va komponentlari. Aqliy tarbiya ta’lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Uning asosiy vazifasi -

ta’lim oluvchilarning fan asoslari bo‘yicha bilimlar tizimi bilan qurollantirish. Ularni o‘zlashtirish natijasida dunyoqarash asoslari shakllanishi zarur.

Aqliy tarbiya asosiy vazifasi ta’lim oluvchilarning fan asoslari bo‘yicha bilimlar tizimi bilan qurollantirishdir.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar:

- belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallah;
- dunyoqarashni shakllantirish;
- aql kuchi, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;
- shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish;
- bilish faoliyatini shakllantirish;
- doimiy ravishda o‘z bilimlarini to‘ldirish, umumta’limiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish;
- ta’lim oluvchilarni bilish faoliyati metodlari bilan qurollantirish;
- fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish. Agar inson odamlar orasida ijtimoiy muhitda yashar ekan, uning aqliy taraqqiyoti, intellekti haqida gapirishga to‘g‘ri keladi. Bu esa uning jismoniy taraqqiyoti uchun ham muhim.

Aqliy rivojlanish deganda hayotiy ta’sir etish va oqibatlarning barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi va fikrlashning rivojlanish jarayonini tushunish mumkin.

Aqliy rivojlanishning nima ekanligini aniqlash uchun “fikrlash” va “aql kuchi” tushunchalariga to‘xtalish lozim bo‘ladi.

Amaliy tajribamizda fikr so‘zini juda ko‘p uchratamiz. Oddiy qilib aytganda, ob’ektiv olamdagи voqeа-hodisalarni ongimizga ta’sir etishi na-tijasida hosil bo‘lgan tuyg‘u fikr deb ataladi. Uning tub mohiyati shunda-ki, fikrimiz orqali biz ko‘zimiz bevosita ilg‘amayotgan, ko‘z o‘ngimizda bo‘l-magan, bo‘lgan taqdirda ham o‘sha narsaning ichki xususiyatiga aloqador bo‘lgan «sirli» jihatalarini ko‘rish imkoniga ega bo‘lamiz.

Fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, u aqliy faoliyat mahsuli. Eng qizig‘i fikrlash merosiy tushuncha, u barcha inchonlarga xos. Falsafiy, pedagogik, psixologiyk adabiyotlarda fikrlashning 20 dan ortiq turlari ajratib ko‘rsatiladi: mantiqiy; abstrakt(mavhum); umumlashgan; nazariy; texnik; reproduktiv; ijodiy(produktiv); tizimli; kategorial; induktiv; deduktiv; algoritmik; tanqidiy; mustaqil va boshqalar.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR


Keng va tor ma'nodagi tarbiya tushunchalariga izoh bering.

2. Tarbiya mazmuni deganda nima tushiniladi?
3. Tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalarini bayon eting.
4. Tarbiya jarayoni qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
5. Tarbiya qonuniyatlarini shrhlab bering.
6. Tarbiya tamoyillarini izohlang.
7. Tarbiya metodi, usuki va vositasi tushunchalariga ta'rif bering.
8. Tarbiya metodlarini tasniflashga doir yondashuvlarni izohlang.
9. .Shaxs ongini shakllantirish metodlari haqida gapirib bering.
- 10..Faoliyatni tashkil etish va ijtimouy xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlarini misollar asosida tushuntiring.
- 11..Faoliyatni rag'batlash va motivatsiyalash metodlarini qo'shimcha manbalardan o'qib to'ldiring.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati.

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustunvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., 2017.-22b
- 10.Y. A.Komenskiy. "Buyuk didaktika". M.Ochilov, S. Rajabov tarjimasi T.:1985
- 11.Alex Moore Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture USA, 2012 Routledge Angliyskiy Textbook
- 13.M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika (Bakalavriat yo'naliishi uchun darslik) - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010. – 400 b.
- 14.Inoyatov.U.I., Muslimov N.A., Ro'ziyeva D.I., M.,X.,Usmonboeva "Pedagogika (nooliy ta'lif muassasalari uchun darslik) Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi, 2013. – 243b
- 15.B.X.Xodjaev Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent, "Sano-standart" nashriyoti, 2017 Darslik
- 16.Aleks Muur. Ta'lif berish va ta'lif olish: pedagogika, ta'lif dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinci nashr. 2012. 5 bet
- 17.The elements of teaching. Jems M. Banner. Gardners Books.

MAVZU: PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR (2SOAT)



Reja:

- 1.Pedagogik texnologiyalar haqida tushuncha.
- 2.Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va unga qo‘yilgan talablar.
- 3.Pedagogik texnologiyalar (muommoli, o`yin, rivojlantiruvchi)va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari.

Tayanch tushunchalar: *Pedagogik texnologiya, konseptual, tizimlilik, ishonchlilik, lokal, molulli, hususiy, metod, metodika, texnika, texnologiya.*

Pedagogik texnologiya – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani echishga qaratilgan pedagogning uzlucksiz o‘zaro bog’langan harakatlari tizimidir; 2) ta’lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to‘plamini qo‘llash bilan bog’liq bo‘lgan pedagogning uzlucksiz, o‘zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq ishlab chiqilgan va qat’iy ilmiy loyihalashtirilgan pedagogik harakat; 4) ta’lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o‘zaro hamkorligi asosida o‘qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo‘llash hamda belgilashning tizimli metodidir. XX asrning 20-yillarida “ta’lim texnologiyasi” termini bиринчи bor pedagogika bo‘yicha adabiyotlarda tilga olingan. Shu vaqtning o‘zida yana bir boshqa – “pedagogik texnika” termini ham tarqaldi. U pedagogik ensiklopediyada 30-yillarda o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. Pedagogik texnologiyalarga o‘quv va laboratoriya uskunalari bilan ishslash, ko‘rgazmali qo‘llanmalardan foydalanish mahoratlari ham kiritilgan.O‘tgan asrning 40–50 yillarida, o‘qitish - o‘quv jarayonlariga texnik vositalarni tatbiq etish boshlanganida, “ta’lim texnologiyasi” termini ommalashdi va u keyingi yillar davomida “pedagogik texnologiyaga” aylantirildi. Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G‘arbiy Yevropada ta’limni isloh qilinishi bilan bog’liq ravishda kirib keldi. B. Blum, J. Keroll, P.Ya.

Galperin, V.I. Davidov, N.A. Menchinskaya, Z.I. Kalmikova, L.I. Zankov texnologiyalari mashhur. O‘qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P. Bespalko, N.F. Talizina, L.M. Fridman, Yu.N. Kulyutkina, G.S. Suxobskoy, T.V. Kudryavtsev, A.M. Matyushkin, M.I. Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir. MDHga kiruvchi mamlakatlar olimlari ichida pedagogik texnologiyani o‘quv jarayoniga olib kirish zarurligini birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergen rossiyalik olim V.P. Bespalkoning fikricha, pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi mahoratiga bog’liq bo‘limgan holda pedagogik muvafaqqiyatni kafoladay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihsidir.

Rossiya olimlaridan Y.M. Monaxov: “Pedagogik texnologiya – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib borilishi va bajarilishi shart bo‘lgan tartibli amallar tizimidir”, degan qisqacha ta’rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e’tiborni qaratadi.

“Pedagogik texnologiya - o‘quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining subyektiv xususiyatlaridan uni ozod etiladi”, deydi. M. V. Klarin fikricha, pedagogik texnologiya - o‘quv jarayonida texnologik yondoshgan xolda, oldindan belgilab olingan maqsad ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonini loyihalashdir.

Y.P. Bespalkoning o‘zbekistonlik shogirdlaridan Nurali Saydahmedov va Abdurahmon Ochilovlaring fikricha, pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ulardan oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. O’.Q. Tolipovning fikricha, “Pedagogik texnologiya – vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta’minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizim”.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan shakllantirilgan “O‘qitish metodlari va pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish” ijodiy guruhining ta’rifi bo‘yicha. “Pedagogik texnologiya – ta’lim oluvchi shaxsiga yo‘naltirilgan, demokratik hamda takrorlanuvchan o‘qish natijalarini kafolatlaydigan ta’lim jarayonini loyihalash, amalga oshirish va baholashning tizimiyl metodikasi”. Bu ta’riflarni xorijda berilgan ta’riflar bilan solishtirib ko‘rish uchun yagona pedagog olimi T.Sakamoto bergen ta’rifni

keltiramiz: “Pedagogik texnologiya - bu muammoli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuaga keltirishdir”.

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralaridan YUNESKOning ta'rifi bo'yicha, “Pedagogik texnologiya - bu bilim berish va uni egallahda texnika va inson resruslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, botun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmuiy yondashuv tamoyilidan foydalanishdir”. AQSH va Germaniya olimlarining pedagogik texnologiyaga bergan ta'rifi YUNESKO bergan ta'rifga yaqin keladi. Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo'lsak uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlarining bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsada lekin farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, Sakomoto, YUNESKO va boshqa xorijiy mamlakatlarda berilgan ta'riflarda majmuiy yondashuv tamoyiliga alohida urg'u berilgan. MDH olimlarining pedagogik texnologiyaga bergan ta'riflarda majmuiy yondashuv eslatib o'tilmaydi ham. Bunga izohning hojati bo'lmasa kerak. Haqiqatda esa, obyektiv borliqqa majmuiy yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga, Sakomoto aytganidek, “Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini muayyan bir majmuaga keltirishdir”, degan tushuncha kifoya qiladi. Bu tushuncha orqali pedagogik texnologiyaning boshqa hamma xususiyatlarini, ya'ni maqsadga yo'naltirilganligini, bir necha o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topganligini va boshqalarni anglab olsa bo'ladi. Chunki bu xususiyatlarning hammasi, majmular nazariyasiga binoan, majmu deb nom olgan narsa va hodisalaming ajralmas sifatlaridir.

Pedagogik texnologiyalarni boshqa texnologiyalardan farqlay bilishda, tushunchalarning mohiyatiga ahamiyat berishimiz darkordir. **Pedagogik texnologiya** - bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

O'qitish texnologiyasi - o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida alohida loyihalash, kutiladigan natijalarini oldindan aniqlashtirish, har bir bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarni oqilona tanlab olish, o'qituvchi va o'quvchining vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi — tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir

bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Identiv o‘quv maqsadi — texnologik jarayonning asosiy komponenti bo‘lib, kutiladigan natijaga aynan mos keladigan o‘quv maqsadi. Identiv o‘quv maqsadi o‘z navbatida o‘quv vazifalariga aylantiriladi.

Interfaol metod - o‘quv jarayoning tarkibiy qismi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchini faollashtirishga yo‘naltirilgan o‘qitish usullari majmui.

Grafik organayzerlar - o‘quv jarayonida qo‘yilgan maqsadga erishishda

yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlami o‘qituvchi tayyor, to‘ldirilgan holda qo‘llasa, vosita vazifasini, o‘quvchilaming mashg’ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi.

Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan xususiyatlaridan va majmular nazariyasining qonuniyatlaridan kelib chiqib, unga quyidagi kengaytirilgan ta’rifni beramiz.

Professor B. Ziyomuhhammadovning ftkricha, “Pedagogik texnologiya - bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiquvchi, oldidan belgilangan kasbi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiradigan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini majmu sifatida ko‘rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo‘lgan o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda va ma'lum bir pedagogik usullardan foydalanib, ko‘rsatgan ta'sirida nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir.

“Pedagogik texnologiya - bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini majmu sifatida qarab, usbbu maqsadning natijalarini kafolatlovchi ta'lim jarayoniga texnologik yondoshiligan ta 'limiy tadbirdir”.

Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta’riflarning xilma-xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada o‘rganilayotganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani pedagogik amaliyotga joriy etishga bo‘lgan urinislarning ma'lum natijasini ifodalaydi. Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so‘zsiz, o‘quv jarayoniga majmu sifatida yondoshishdir. Bunda ta'lim-tarbiyada ishtirok etuvchi barcha

narsa va hodisalar o‘zaro funksional bog’liqlikda bo‘lib, bir butunlikni, ya’ni majmuni tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuyining muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma - bosqich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi. Pedagogik texnologiyaning an'anaviy usul (metod)lardan asosiy farqi, uning to‘la-to‘kis majmular nazariyasini qonuniyatlaridan kelib chiqqanligidadir.

Pedagogik texnologiyaning avvalgi usullardan afzalligi, u ta’lim jarayonini bir butunlikda ko‘rib, ta’lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilarni majmuga keltirib, ta’lim natijalarini avvaldan belgilab, ta’lim jarayonini nazorat qilish va baholash kabi qismlarini o‘zaro uzviy bog’lab majmuga keltirib turib, jarayon loyihasini tuzishidadir. Uning an'anaviy usullanlan farqi, u talabalarning o‘zlariga berilgan bilimni yodlab aytib berishiga emas, balki ta’lim-tarbiya jarayonining yakunida konkret bir harakatlarni bajarishga yo‘naltirilganlidadir.

Pedagogik texnologiyaning boshqa ta’lim usullaridan navbatdagi farqi, uning yordamida o‘quv jarayoni tashkil etilganda, dars natijasi bilim beruvchining pedagogik mahoratiga bog’liq emaslidigidir. Shunday qilib, ba’zi yondashuvlarda pedagogik texnologiyalar o‘qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o‘quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi.

Ta’lim texnologiyasi nazariyasini rivojlanish bosqichlari

I-bosqich

XX asrning 30-yillari. T T-o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishda ko‘maklashuvchi usul va vositalar

II-bosqich

XX asrning 50-yillari. Ta’lim jarayonida texnik vositalarni (TV) qo‘llash, ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig‘imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, o‘quvchi faoliyatini individuallashtirish

III-bosqich

XX asrning 60-yillari. Ta’lim maqsadlarining aniqlanishi, ta’lim jarayonini umumiy loyihalash hamda uni samaradorligini oshirish, ta’lim maqsadining natijalanganligini o‘rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish

1-chizma

Boshqa yondashuvda esa texnologiyaga ta’lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta’minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta’limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko’rsatadiki, aksariyat o‘qitish texnologiyalari bo‘sh texnologiyalanganligi bo‘yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

T. Ballo texnologiyaning bir tomonini, ya’ni o‘qitishda topshiriqli yondashuvni yoritadi. Boshqalarida yo kompyuter orqali dasturlashtirilgan o‘qitish yoki o‘qitishning muammoli tuzilmasi ajralib turadi.

L.V. Zankov, T.Ya. Galperin, V.I. Davidov tadqiqotlarida bosqichli o‘qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

Pedagogik texnologiya mezonlari, aspektlari va qo‘llanilish darajalari.

“Pedagogik texnologiya” lar uchta aspektlar bilan taqdim etiladi:

Bunda ilmiy pedagogik texnologiya – o‘qitishning maqsadi, mazmuni va metodlarini o‘rganuvchi hamda ishlab chiquvchi, pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi pedagogik fanning bir qismi sifatida ifodalanadi.

Protsessual – tavsifiy aspekt – pedagogik jarayonni tasvirlash o‘qitishning ko‘zda tutilgan natijalariga erishish uchun vositalar va maqsad, metodlar to‘plami sifatida izohlanadi.

Protsessual – amaliy aspekt – texnologik jarayonni amalga oshirilishi, hamma shaxsiy, instrumental va metodologik pedagogik vositalarning ishga solinishi bilan belgilanadi. Shunday qilib, pedagogik texnologiya o‘qitishning eng samarali yo‘llarini izlovchi fan sifatida ham, o‘qitishda

qo‘llaniladigan

usullar,

prinsiplar

va

Pedagogik texnologiya aspekti

*Ilmiy -aspekt
olingan bilimlarni
ilmiy asoslanishi*

*Tavsify -rejalashtirilgan
o‘qitishning natijalariga
erishishning maqsadi,
mazmuni, metodlari va
vositalarinining ishtirokida
algoritm jarayoni ishlab*

*Amaliy -
pedagogik
texnologiya
jarayoni amalg
oshiriladi*


2-chizma

boshqaruvar sistemasi sifatida ham, o‘qitish haqiqiy jarayoni sifatida ham ishtirok etadi.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi ta’lim amaliyotida uchta tartib bilan bir-biriga bog‘liq darajalarda ishlatiladi:

Mazkur darajalarga to‘liq izoh beriladigan bo‘lsa, umumpedagogik (umumdidaktik) daraja: umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ta’limning ma’lum bosqichida ushbu hudud, o‘quv yurtida yaxlit ta’lim jarayonini ifoda etadi. Bu yerda pedagogik texnologiya pedagogik tizimga o‘xshashdir: unga o‘qitishning maqsadlari, mazmuni, vosita va metodlari to‘plami, faoliyat obyekti va subyekti algoritmi kiradi.

Xususiy metodik (fan) darjasи: xususiy metodik pedagogik texnologiya «xususiy metodik» ko‘rinishida qo‘llaniladi, ya’ni bir fan, sinf, o‘qituvchi doirasida o‘qitish va tarbiyalash ma’lum mazmunini amalg oshirish uchun metodlar va vositalar to‘plami sifatida ishlatiladi.



3-chizma

Lokal (modulli) darajasi: lokal texnologiya o'quv-tarbiyaviy jarayoning alohida qismlari, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalarni hal etish texnologiyasidan iborat (alohida turdag'i faoliyat, tushunchalar shakllantirish, alohida shaxsiy sifatlarni tarbiyalash, dars texnologiyasi, materiallarni takrorlash va tekshirish texnologiyasi, mustaqil ishlar texnologiyasi va boshqalar).

Pedagogik texnologiya haqidagi tushunchalardan texnologiya o'quv jarayoni - o'qituvchi va o'quvchining faoliyati, uning tuzilishi, vositasi, metodlari va shakllari bilan yaqin bog'liqligini ta'kidlab o'tilgan edi. Shu nuqtayi nazardan pedagogik texnologiya tuzilishiga quyidagilar kiradi:


1. Konseptual asosi.
2. O'qitishning mazmunli qismi:
 - ✓ o'qitish maqsadlari – umumiy va xususiy, aniq;
 - ✓ o'quv materiali mazmuni.
3. Protsessual qismi – texnologik jarayon:
 - o'quv jarayonini tashkil etish;
 - o'quvchilar o'quv faoliyati metodlari va shakllari;
 - materiallarni o'zlashtirish jarayonini boshqarish bo'yicha o'qituvchining faoliyati;
 - o'quv jarayoni diagnostikasi.

Har qanday pedagogik texnologiya ba'zi bir metodologik talablarga yoki texnologik mezonlariga javob bera olishi kerak. Pedagogik texnologiyalarning asosiy sifatlari quyidagilarda ifoda etiladi:

Konseptuallik. Har bir pedagogik texnologiyaga ta’lim maqsadlariga erishish falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslarini ichiga oluvchi ma’lum ilmiy konsepsiya tayanish xos bo‘lishi kerak.

Tizimlilik. Pedagogik texnologiya sistemalilik belgilariga ega bo‘lishi kerak: jarayonning mantiqi, uning hamma qismlari bog‘liqligi, yaxlitligi.

Boshqariluvchanligi o‘qitish jarayoni diagnostik maqsadni ko‘zlash, rejalahtirish, loyihalashtirish, bosqisma-bosqich diagnostika qilish, natijalarini tuzatish maqsadida vosita va metodlarni o‘zlashtirish mumkinligini ko‘zda tutadi. *Samaraliligi.* Zamonaviy pedagogik texnologiyalar aniq sharoitlarda mavjud natijalar bo‘yicha samarali, xarajatlar bo‘yicha optimal bo‘lishi, o‘qitishning ma’lum standartiga erishishni kafolatlashi kerak (ya’ni 70% foizdan ortiq o‘quvchilar «yaxshi» bahoga va «a’lo» bahoga o‘qishlari kerak, bu esa agarda sinfda 25 ta o‘quvchi bo‘lsa – shundan 19 tasi deganidir). Qayta yangilanishi pedagogik texnologiyani boshqa bir turdagи ta’lim muassasalarida, boshqa subyektlar bilan qo‘llanilishini (takrorlanishini, qayta tiklanishini) nazarda tutadi.




Foydalangan adabiyotlar ro`yhati.

1.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustunvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., 2017.-22b

2..Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., 2017. –14b.

- 3.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak.—T., O`zbekiston. 2017. –102 b.
- 4.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
- 5.Karimov I.A. “Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori // Sharq nashiryoti. – T., 1998. – B. 37.
- 6.O`zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi. – T.: O`zbekiston, 2009. – 40 b.
- 7.O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonuni// “Barkamol avlod” – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. – Sharq, 1997. – B. 20-29.
- 8.O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // “Barkamol avlod” – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. – Sharq, 1997. – B. 31-61.
- 9.O`zbekiston Respublikasida umumiyl o’rta ta’limni tashkil etish to`g`risida: O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 1998 yil, 13may // Ta’lim taraqqiyoti. – 1998. – N1. 77-81b.
- 10.Y. A.Komenskiy. “Buyuk didaktika”. M.Ochilov, S. Rajabov tarjimasi T.:1985
- 11.Alex Moore Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture USA, 2012 Routledge Angliyskiy Textbook
- 12.Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi T.: O’qituvchi, 2006 Darslik
- 13.M.X.Toxtaxodjayevaning umumiyl tahriri ostida. Pedagogika (Bakalavriat yo’nalishi uchun darslik) - Toshkent: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 400 b.
- 14.Inoyatov.U.I., Muslimov N.A., Ro’ziyeva D.I., M.,X.,Usmonboeva “Pedagogika (nooliy ta’lim muassasalari uchun darslik) Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi, 2013. – 243b
- 15.B.X.Xodjaev Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017 Darslik
- 16.Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinch nashr. 2012. 5 bet
- 17.The elements of teaching. Jems M. Banner. Gardners Books.

MAVZU: PEDAGOGIK NAZORAT VA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH (2SOAT)



Reja:

- 1.Ta'lism sifati tushunchasi.
- 2.Ta'lism sifati ma'rifiy (ta'limiy, tarbiyaviy) faoliyatni baholash va nazorat qilish muommosi sifatida.
- 3.Ta'lim mazmunini o'zlashtirish va ma'rifiy (ta'limiy, tarbiyaviy) jarayonlar natijalarini baholashni pedagogik nazorat qilish hususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: *tashxis, tashxis etish, nazorat, hisobga olish, tekshirish, baholash, baho, ta'lim sifati, monitoring.*

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Didaktik tashxislashning *maqsadi* o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar toplash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari. Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa **tekshirish** deb ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo’lib, uning asosiy didaktik vazifasi o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida aks aloqani ta’minlash, pedagog tomonidan o’quv materialini o’zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o’z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o’quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o’quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O’quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko’rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi *birinchi bo’g’in* ta’lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash** hisoblanadi. Odatda, u o’quv yili boshida o’quvchilar tomonidan avvalgi o’quv yilida o’zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o’tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o’quv yilining o’rtasida yangi bo’lim (kurs)ni o’rganishga kirishilganda ham o’tkazilishi mumkin va o’rinli bo’ladi.

Bilimlarni tekshirishning *ikkinci bo’g’ini* har bir mavzuni o’zlashtirish jarayonidagi **joriy tekshirishdir**. Joriy tekshirish ta’lim oluvchilar tomonidan o’quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o’zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o’rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo’lib, ular o’quv materiali mazmuni, murakkabligi, o’quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta’lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog’liq bo’ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko’nikma va malakalarini tekshirishning **uchinchchi bo’g’ini** sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo’lishi mumkin. Yangi mavzuni o’rganish bilan birga o’quvchilar avval o’rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko’maklashadi, biroq o’quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o’zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo’llanilsagina kutilgan samarani beradi.

Tizimning *to’rtinchi bo’g’ini* o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini yaxlit bo’lim yoki kursning alohida mavzusi bo’yicha **davriy tekshirish** hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi – kursning turli qismlarida o’rganilgan o’quv materialining strukturaviy elementlari o’rtasidagi o’zaro aloqalarni o’zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda *beshinchi bo’g’in* ta’lim oluvchilarning, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko’nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olishdir**. O’zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o’quv yili oxirida o’tkaziladi. U olingan baholarni qo’shib, o’rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo’lmasligi lozim. Bu,

avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta’lim olganlik darjasini (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o’z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi.

Baholash deb bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan etalon (ko‘rstakich, qolip, o‘lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. **Baho** deb baholashning ball shaklida ko‘rsatilgan son jihatdan o‘lchamiga aytildi.

O’zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilar va xokazolar baho ko’rinishida qayd etiladi. O’quvchining o’zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo’ladi. Bunda o’quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.

O’qituvchi o’qitish bilan bir vaqtida o’quvchilarning o’rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo’llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Hisobga olish – bu o’qitishning muayyan bir davrida o’quvchilar va o’qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o’qituvchi ham, o’quvchi ham o’zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O’zlashtirishni hisobga olish o’quvchilarning bilish faoliyatini rag’batlantirib, ma’lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o’zlashtirishni hisobga olish o’qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O’qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o’qituvchining pedagogik mahorati ko‘rsatkichiga aylanmoqda va o’qituvchining o’z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo’lmoqda.

O’zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o’qitish, tarbiyalash va rivojlantirish **vazifalarini** bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o’quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darjasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o’quv materiallarini o’rganishning keyingi bosqichiga o’tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o’qituvchining

o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rindi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi.

Nazoratning **tarbiyalash vazifasi** shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsnинг tafakkurini rivojlantirishga, xis-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning **rivojlantiruvchi vazifasi** sanaladi.

Ta'lismaganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.

Pedagogikada o'quvchilarning ta'lismaganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (obyektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoraliq) sanaladi. **Xolislik (obyektivlik)** tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lism olovchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashxis o'tkazgan o'qituvchidan qat'iy nazar xamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lism jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lism olovchilar o'quv muassasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lism olovchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lism nazoratini tez-tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo'l qo'yaydi.

Ko'rgazmalilik (oshkoraliq) tamoyili avvalo barcha ta'lism olovchilar-ni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoraliq tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va

motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashxislash natijalarini e'lon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, nuqsonlarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari. Hozirgi davr pedagogik amaliyotida o'quvchilar o'quv faoliyatini nazorat qilishning qo'yidagi *turlaridan* foydalaniladi: joriy nazorat; oraliq nazorat; yakuniy nazorat.

Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning har bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o'qituvchini har bir o'quvchining o'quv faoliyati bo'yicha tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o'zlashtirmagan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yicha choralar belgilaydi.

Oraliq nazorat – bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda o'tkazadi.

Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin o'quvchilar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

Yakuniy nazorat – choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo'llinadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o'tkaziladi.

Nazoratning shakli o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy **besh shakli** mavjud:

nazoratning ommaviy (frontal) shaklida o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchini nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o'quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi.

nazoratning guruhli shaklida o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan o'quvchilar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi.

nazoratning individual shaklidan har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida, odatda o'quvchilar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan)shakli individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha o'quvchilardan so'rash kerak bo'lган vaqtida foydalanadi. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtida birnecha o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi.

o'z-o'zini nazorat qilish shakli ta'llim jarayonida ichki aks aloqaning bo'lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish **metodlari quyidagilar:** og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir.

Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rindiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalgalash oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Yozma tekshirish – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lidan so'ng oz vaqtning ichida barcha o'quvchilarni tekshirishi mumkin. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va b. yordamida olib boriladi. Ammo o'qituvi va o'quvchi o'rtasida bevosita aloqaning yo'qligi sababli uning fikrlashini kuzatish imkonini bo'lmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki

olingen natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish malakasi aniqlanadi.

Uy vazifalarini tekshirish. O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv ishiga bo'lган munosabatini, o'rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini baholash mezonlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

«5» baho qo'yiladi, agar: a) o'quvchi dasturdagi materialni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; b) o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo'llay olsa; g) o'rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4» baho qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; b) o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olsa; g) og'zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo'limgan xatoga yo'l qo'ysa qo'yiladi.

«3» baho yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzuulishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatolari bor bo'lsa.

«2» baho qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o'zlashtirmagan, b) yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa qo'yiladi.

Ta'lim sifati monitoring. "Monitoring" atamasi ilk maratoba Birlashgan Millatlar tashkilotining 1972-yil iyun oyida Stokholm konferensiyasini tashkil etish arafasida "nazorat" atamasiga muqobil sifatida ishlatila boshlangan.

"Monitoring – inglizcha atama bo'lib, "uzluksiz kuzatish" degan ma'nosini anglatadi. Monitoringga ijtimoiy boshqaruv nazariyasida eng muhim, boshqaruv

sohasidagi nisbatan mustaqil bo'lim sifatida qaraladi hamda ta'lim monitoringi doirasida pedagogik faoliyat natijalari yuzaga chiqariladi va baholanadi.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish sofati monitoring tizimi samarali yo'lga qo'yilgan.

Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: ichki nazorat – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o'rta ta'lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi; tashqi nazorat – ta'lim sohasidagi vakolatlari davlat organlari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi; davlat-jamoatchilik nazorati – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi; milliy va xalqaro darajada baholash – Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta'limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi

Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari

quyidagilardan iborat: ichki nazorat; tashqi nazorat; davlat-jamoatchilik nazorati; milliy va xalqaro darajada baholash.

O'qituvchilar yoki maktab ma'muriyati, o'quvchilarning o'zлari, ota-onalar va jamoatchilik vakillari o'quvchilarning bilimlarini o'quv maqsadlari asosida tekshiradilar. Mazkur yo'naliш o'ziga xos bir qator afzallikkarga ega bo'lib, baholash bevosita o'quvchining sinfda amalga oshirilgan ishlari bilan bog'liq, bunda o'qituvchi turli uslublardan (masalan og'zaki so'rov o'tkazish, amaliy mashq bajarish, test va h.k.) foydalanib, o'quvchi tomonidan bajarilgan ishlarga baho qo'yadi. Baholash jarayoni tizimli ravishda o'quv choragi va o'quv yili davomida olib boriladi. Bunday baholashda o'qituvchilar, maktab monitoring guruhi o'quvchilarning o'zlashtirishi sifati, o'quv yutuqlariga asosiy me'yor bo'lgan davlat ta'lim standartlariga taqqoslagan holda individul baho beradilar.

Baholashning ikkinchi turi hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari tomonidan amalga oshiriladigan hududiy o'qitish sifati monitoringi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatiladi, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar va ularning kelib chiqish omillarini aniqlanadi, boshqa maktablar hamda bartaraf etish chora-tadbirlari rejalashtiriladi.

Shu sababli zamonaviy shaxsga, raqobatbardosh mutaxassisga qo'yilgan talablarning ortib borishi eng avvalo ta'lim muassasalari va hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralaridagi alohida tuzilmalar tomonidan ta'lim sifati monitoringini

tizimli va maqsadli amalga oshirishni talab etadi. Ta’lim muassasalarida monitoring – yaxlit tizimning holati va dinamikasini kompleks kuzatish, tahlil qilish, korrektsiyalash hamda prognozlash jarayoni hisoblanadi.

Baholashning keyingi uchinchi turi – davlat attestatsiyasi va ta’lim muassasalarining akkreditatsiyasi hisoblanadi. Ular davlat tomonidan yoki uning nomidan vakolatli tashkilotlar tomonidan o’tkaziladi. Ularda qatnashish huquqiga muayyan talablarga javob beradigan barcha o’quvchilar ega. Mazkur baholash muayyan ta’lim bosqichi yoki turi tugaganidan so’ng amalga oshiriladi. Ularning asosiy va ijtimoiy jihatdan muhim vazifalari bitiruvchilar va ta’lim muassasalarining davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmalarni bajarish holatini tahlil qilish imkonini beradi.

Umummilliyl baholash – barcha o’quvchilarni yoki ma’lum bir guruhdagi o’quvchilarni tanlab olish yo’li bilan muntazam ravishda o’quvchilar o’quv yutuqlari darajasini milliy standartlarga nisbatan mosligi baholash hisoblanadi. Mazkur turdag'i baholash o’quv dasturlari asosida olinib, imtixonlardan farq qiladi. Birinchidan, alohida olingan o’quvchilarning bilim va malakasi darajasi emas, balki tizimning ishlash natijalari o’lchanadi. Ikkinchidan, milliy baholash natijalari muayyan yoshdagi yoki sinfdagi o’quvchilarning umumiyl o’zlashtirish darajasining “rentgen surati” sifatida foydalaniładi va milliy standartlarning ko’p muddatda monitoringini olib borishga xizmat qiladi. Tanlash yo’li bilan o’tkazilgan umummilliyl baholash qisqa muddatlarda va iqtisodiy jihatdan arzonroq o’tkazish imkoniyatini beradi. Uning natijalari ma’lum o’quv fanlari bo’yicha o’quvchilar o’quv yutuqlari to’g’risida qimmatli ma’lumotlarni berishi mumkin.

Xalqaro baholashni yaqin 15-20 yilda tashkil etish yo’lga qo’yilib, ularda bir necha mamlakatlar o’quvchilarining o’quv yutuqlari tanlov yo’li bilan baholanadi. Bunday keng qamrovli tadqiqotlarning asosiy maqsadi qamrab olingan muayyan yoshdagi (masalan, 13 yoshdagi o’quvchilar) yoki sinfdagi o’quvchilarning bir yoki bir necha o’quv fanlari bo’yicha o’quv yutuqlarini baholash va bir qator mamlakatlar kesimida qiyoslashdan iborat. Misol tariqasida matematika va tabiiy fanlardan o’tkazib kelinayotgan - TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study –Xalqaro matematika va tabiiy fanlarning o’rganishdagi tendensiyalari)ni keltirish mumkin. TIMSS ning birinchi xalqaro tadqiqotida 38 mamlakatning 4-, 8- va umumiyl o’rta ta’lim muassasalarining bitiruvchilari (11- va 12-sinf o’quvchilar) qamrab olingan. Oxirgi uchinchi tadqiqotida esa 46 mamlakat o’quvchilari qatnashganlar.

Yana bir xalqaro o’quvchilar ta’limiy yutuqlarini xalqaro baholash dasturi – PISA (Programm for International Student Assessment) tadqiqoti hisoblanadi. Bu tadqiqot birinchi marta 2000 yilda o’tkazilib, unda 32 mamlakatning 15 yoshli o’quvchilari qatnashgan. PISA da asosiy e’tibor o’quvchilarning o’qish,

matematika va tabiiy fanlar (fizika, ximiya, biologiya)dan olgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlarini baholashga qaratilgan. Uchinchi xalqaro tadqiqot – PIRLS da turli mamlakatlar boshlang'ich maktablari bitiruvchilarining matnni o'qish va uni tushunish darajasi baholanadi.

Mazkur tadqiqotlarning maqsadi – o'quvchilar yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash va ularni xalqaro miqyosda qiyoslash bo'lib, uning natijalariga ko'ra ta'lim siyosati masalalari hamda o'quvchilar o'zlashtirishidagi tafovutlarni yaxshiroq anglab etishga qaratilgan xalqaro muloqot olib boriladi. Xalqaro tadqiqotlar nufuzining oshib borishi bugungi dunyoda globallashuv jarayonlari natijasida mustaqil hayotga kirib kelayotgan o'quvchilarga mehnat bozorida qanday bilim va ko'nikmalar kerakligi to'g'risidagi ijtimoiy buyurtmalarni hamda raqobatbardosh mutaxassislarga qo'yilgan talablarni kengayib borayotganligidan darak beradi.

Ta'lim sifati monitoringini olib borishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlari talablarining bajarish dinamikasini tizimli kuzatish, ta'lim sifatiga ta'sir etgan omillarni aniqlash, ta'lim muassasalari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari, metodik xizmat va malaka oshirish tizining faoliyatini baholab, rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni belgilash, keyingi holatni bashoratlash natijasida ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Didaktik tashxis deganda nima tushiniladi?
2. Tashxislashning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Nazorat va hisobga olish deb nimaga aytiladi?
4. Nazoratning qanday vazifalari mavjud?
5. Tekshirish deb nimaga aytiladi? Tekshirishning qanday bo'ginlari mavjud?
6. Baholash deb nimaga aytiladi? Baho deb nimaga aytiladi?
7. Tashxislashning tamoyillarini izohlang.
8. Nazoratning turlari, shakl va metodlarini bayon eting,
9. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini tushuntirib bering.
10. Ta'lim sifati monitoring qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

MAVZU: Muloqot va nutq (2soat)



REJA:

- 1.Muloqot va munosabat
- 2.Muloqot turlari.
- 3.Muloqot jarayonida psixologik tasir (verbal.noverbal.paralingvistik)
- 4.Nutq va uning turlar
- 5.Tafakkur va nutq.

Tayanch so'z va iboralar: Muloqot, munosabat, muomala, Identifikatsiya, perseptiv kommunikativ, interaktiv, refleksiya, stereotipizatsiya, kommunikatsiya, Pedagogik muloqot, verbal, noverbal, paralingvistik.

Muloqot va munosabat

Muloqot-odamlar o`rtasida birlashtirilgan faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog`lanishlar rivojlanishining ko`p qirrali jarayonidir.

Munosabat va muloqot birlashtirilgan faoliyat ko`rsatuvchilar o`rtasida axborot ayirboshlanishini o`z ichiga oladi. Odamlar muloqotga kirisharkan, muloqotning eng muhim vositalaridan biri sifatidagi tilga murojaat qiladilar. Munosabatning ikkinchi jihatni munosabatga kirishuvchilarning ылжар биргаликдаги гаракати – nutq jarayonida faqat so`zlar bilan emas, balki harakatlar, xatti-harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iboratdir. (Masalan, ro`paradan kelayotgan mashina haydovchisiga bormoqchi bo`lgan yo`nalishni ishora qilish har ikkala tomon uchun ham qulay va tejamli ekanligi tushunarli bo`lsa kerak). Nihoyat, muloqotning uchinchi jihatni munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlarini taqozo qilishidir. Suhbatdoshining holatiga, rangi-ro`yiga, ovoziga qarab muomala qilish. Shunday qilib, yagona munosabat jarayonida shartli ravishda uchta jihatni kommunikativ (axborot uzatish, interaktiv, o`zaro birlashtirilgan faoliyat qilish) va pertseptiv (o`zaro birlashtirilgan faoliyat qilish) va etishishi jihatlarini alohida ko`rsatish mumkin). Odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa ishlab chiqarish tarzida tushunilishi, ana shu umumiy narsa avvalo munosabat vositasi sifatidagi tildan iborat ekanligini bildiradi. Til - munosabatga kirishuvchilar ылжасида aloqa bog`lanishini ta'minlaydi. Axborot uzatuvchi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (retsipient) «bitta tilda» so`zlashganlarida mAqsadga erishadilar. (Shartli ishora, kod, belgi va b.). Og`zaki kommunikatsiya. Nutq. Nutq - bu og`zaki kommunikatsiya, ya`ni til yordamida muomala qilish jarayoni demakdir. So`zlar ovoz chiqarmasdan yoki eshittirib ayttilishi, yozib qo`yilishi, yoki imo-ishora

bilan almashtirilishi mumkin (Masalan, daktiologiya- barmo? yordamida ishora -ma'no anglatish). Identifikatsiya - shunday psixologik hodisaki, bunda suxbatdoshlar bir-birlarini to`g`riroq idrok qilish uchun o`zlarini bir-birlarining o`rniga qo`yib qo`yishga harakat qiladilar. Ya`ni, o`zidagi bilimlar, tasavvurlar, hislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o`zini birov bilan solishtirish (ongli yoki ongsiz) identifikatsiyadir. Masalan, birinchi marta dars o`tayotgan pedagogning ichki holatini uning xamkasbi yaxshi tushunishi mumkin. Refleksiya - muloqot jarayonida suxbatdoshning pozitsiyasidan turib, o`zini tasavvur qilishdir, ya`ni refleksiya, boshqa odamning idrokiga taalluqli bo`lib, o`ziga birovning ko`zi bilan qarashga intilishdir. Stereotipizatsiya - odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o`rnashib qolgan, ko`nikib qolning obrazlardan shablon sifatida foydalanish hollaridir. Ijtimoiy stereotiplar – har bir shaxsda u yoki bu guruhli kishilar haqida shakllangan obrazlardir. Bunday stereotiplar ba`zan muloqotni to`g`ri yo`nalganligini tahminlasa, boshqa hollarda esa undagi xatoliklarning sababi bo`lishi mumkinligini kuzatilgan. Idrok va tushunish borasidagi bunday xatoliklar kauzal atributsiya (lotinchasiga “kauza”- sabab, “atrebutsio”- bermoq, qo`shib, bo`rttirib bermoq ma’nosini bildiradi) deb ataladi. Masalan, o`qituvchi bilan hamsuxbat bo`lib qolgan odamda suxbat boshidayoq “hozir odob-axloqdan dars berishni boshlamasmikan” degan shubha paydo bo`lishi mumkin. Bu ham stereotip. Bundan tashqari, odamlar birinchi marta ko`rgan odam to`g`risida tasavvurga ega bo`lish maqsadida uning tashqi qiyofasi bilan xarakteri o`rtasida bog`liqliklar o`rnatishga harakat qiladilar. Muloqotning turli shakllari yoki bosqichlari mayjud bo`lib, dastlabki bosqich - odamning o`z-o`zi bilan muloqotidir. Odamning o`z-o`zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o`z-o`zi bilan hadeb muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o`zini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan suxbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Demak, o`zgalar bilan muloqot – muloqotning ikkinchi bosqichi va ko`rinishidir. Muloqotning hayotimizdagи shakl va ko`rinishlariga kelsak, uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o`sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko`rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda, har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo`ladi. Quyidagi nutq turlari farq qilinadi: yozma va og`zaki nutq. O`z navbatida og`zaki nutq - dialogik va monologik nutqlarga ajratiladi. Nutq mexanizmi. Nutq ikkinchi signallar tizimi negizida amal qiladi. Nutq- I.P. Pavlov aytganiday, «signallar signal»dir. Nutqsiz kommunikatsiya. Turli soha mutaxassislari uchun Ayniqsa nutqsiz kommunikatsiya xossalari yaxshi bilish juda muhimdir. Odamlar o`rtasidagi muomalani telegraf orqali axborot berishga o`xshatish mumkin emas. Nutqsiz kommunikatsiya vositalariga qo`l, barmoq, va yuz harakatlari, imo-ishora, ohang, pauza, turq-tarovat, kulgi, ko`z yoshi qilish va shu kabilar kiradiki, bular og`zaki kommunikatsiya vositalari - so`zlarni to`ldiruvchi va kuchaytiruvchi, ba`zan esa o`rnini bosuvchi belgilar tizimini ?osil qiladi. Munosabat shaxslararo birgalikdagi harakat, ya`ni odamlarning birgalikdagi faoliyati jarayonida tarkib topadigan aloqalari va izzaro bir-birlariga ta'sirining yig`indisi sifatida yuzaga chiqadi. Birgalikdagi faoliyat va

munosabat ijtimoiy qoidalar-odamlarning birgalikdagi harakati va o`zaro munosabatlarining qat'ian belgilab qo`yadigan hamda jamiyatda udum bo`lgan xulq-atvor namunalari asosida amalga oshiriladigan sotsial sharoitda yuz beradi. Ijtimoiy qoidalar doirasi behad darajada kengdirki, ular mehnat intizomi, harbiy burch va vatanparvarlik talablariga javob beradigan xulq-atvor namunalaridan tortib to odoblilik qoidalariga qadar hammasini o`z ichiga oladi (Odamlar bajaradigan rollar va ularni ijtimoiy jihatdan baholanishi haqida). O`zaro birgalikda harakat qilayotgan odamlar xulq-atvorining bir-birlaridan kutgan taxminlariga mosligini munosabat jarayonida muvaffaqiyatga erishishning zarur sharti hisoblanadi. Kishining boshqalardan eshitishga yoki ularda ko`rishga tayyor bo`lgan narsani ulardan kutish mumkinligini bexato va aniq taxmin qilish qobiliyati va malakasi odob deyiladi. Noto`g`ri taxmin qilish odobsizlik bo`lib, ko`p hollarda muloqot uzilishiga, ba'zan mojaro - ixtiloflarga olib kelishi mumkin. Shaxslararo ixtilof - konflikt. Munosabat jarayonini har doim va barcha vaziyatlarda ham silliqqina va ichki qarama-qarshiliklarsiz yuz beradi deb tasavvur qilish yaramaydi. Ayrim vaziyatlarda bir-birini inkor etuvchi qadriyatlar, vazifalar va maqsadlarning mavjudligini aks ettiruvchi pozitsiyalar antagonizmi yuzaga chiqadiki, bazan bu o`zaro adovatni, keltirib chiqaradi - shaxslararo ixtilof sodir bo`ladi. Ixtilofning ijtimoiy mohiyati turlicha va shaxslararo munosabatlar negizini tashkil etadigan qadriyatlarga bog`liq bo`ladi. Birgalikdagi faoliyat jarayonida mojarolarning sabablari o`rnida ikki xil toifadagi determinant, ya'ni ash'yoviy - amaliy kelishmovchiliklar va shaxsiy pragmatik (amaliy) manfaatlar o`rtasidagi tafovut maydonga chiqadi. Mojarolarning kelib chiqishiga, birgalikda harakat qilishga g`ov bo`lgan va bartaraf qilinmagan ma'naviy anglashilmovchiliklar ham sabab bo`ladi. Munosabatdagi ma'naviy anglashilmovchilik - bu aytilgan talabning, iltimosning, buyruqning ma'nosи munosabat bog`lashgan sheriklar uchun muvofiq emaslidir. Do`stona munosabat. Munosabatga kirishuvchilarning o`zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan munosabatdagi qoniqish hosil qilganligining yuksak darjasini, javob tariqasidagi his-tuyg`ular va afzal ko`rishning taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o`zaro munosabatlar va o`zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual tanlash tizimi sifatidagi do`stlik odamlar munosabatining alohida shaqli sifatida yuz beradi. O`zaro birgalikda harakat qila boshlaydigan odamlar o`zaro hamjihatlik darajasini baholab oladigan va muomalaga kirishgan sheringining kimligi haqida o`ziga hisob bera oladigan bo`lsagina muomala yuz berishi mumkin. Muomalining pertseptiv jihat - bu kishining kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va baholashi demakdir. O`zaro bir-birini bilish borasida shaxslararo idrok etishning uchta muhim mexanizmining ta'siri - identifikasiyalash (aynan o`xshatish), refleksiya (fikrni tahlil etishga, o`z-o`zini anglashga moyillik) va stereotiplashtirish (bir xil qolipga solish)ni alohida ko`rsatish mumkin. Ayniqsa boshliq uchun turli guruhlardagi, ko`p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o`zida, bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning harakteriga javobgar bo`lish qiyinchiliklar tug`diradi, chunki o`sha guruhlarni tashkil etgan har bir shaxsning o`ziga xos individualligi, boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy

liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr-qanoatning bo`lishini talab qiladi. Ijtimoiy faoliyat jamiyatdagi, jamoadagi, oiladagi yurish-turish tamoyillari inson aql-zakovatining yoki boshqacha aytganda tabiiy intellektning talablarini qondirish rahbarlar, mutaxassislar, oddiy xodimlar bilan munosabatda bo`lish, bir tizim doirasida faoliyat ko`rsatayotgan odamlar orasida ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ruhiy tarbiyaviy munosabatlar o`rnatish kabi muhit bilan qurshovda bo`lishi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqan holda ijtimoiy faoliyatda xulq va axloq kabi umumiy tushunchalarni ajratib qarash o`rinlidir. Xulq - kishining jamiyatda yashab namoyon etadigan, shakllanadigan tushuncha bo`lib, u kishining yurish-turishida, axloqida, munosabatida, xotirasida, tafakkurida namoyon bo`ladigan ijtimoiy ongning bir ko`rinishidir. Axloq - jamiyatdagi, jamoadagi, oiladagi, yurish-turish tomiyillari yig`indisi. Axloq - kuzatib boradigan huquq me`yorlaridan farq qiladi. Axloq jamiyatichilik fikriga va tapsiriga, ehtiqed, anhana va odatga, urf-odatga, kishining o`z xulq-atvorini boshqarishga tayyorligiga, mehribon va xushmuomalaligiga, ishda hamkasblari bilan madaniyatli munosabatda bo`lishga, mehnat, ishlab chiqarish, moliya intizomlarini saqlashiga tayanadi. Axloq kishining og`ir sharoitda o`zini tuta bilishida, bo`ysunuvchilariga to`shiriq berayotganda xushmuomala bo`lishda, qo`l ostidagilarga nisbatan e`tiborli bo`lishda, ular muvaffaqiyatini o`z vaqtida taqdirlashida o`z ifodasini to`adi. O`zbekiston Respublikasining mustaqilligi uning fuqarolariga inson erkinligi huquqlaridan foydalanishga keng yo`l ochib berdi. Ayniqsa, ijodkorlarga, ixtirochilarga, aqliy mulk egalariga qulay sharoitlar yaratdi. Ular o`z aql-zakovat mulkini: ixtirolari, ilmiy kashfiyotlari, texnologik yangiliklari, uslubiy ishlanmalarini tovar sifatida erkin sotish imkoniyatiga ega bo`lishdi. Bu: xalqimiz ichidan yangi ixtirochilar, ijodkorlarning o`sib chiqishiga xizmat qilsa; ma`naviyat, ma`rifat, ilm-fan kabilarning o`sishiga imkoniyat yaratadi.

Bugungi sharoitda boshqarish vazifasi qanchalik murakkab, tabaqalashgan bo`lgani sari, rahbarlik qilish oldida har qanday vazifa ichida ham vazifalararo yo`nalishda ham boshqarishni takomillashtira olish vazifasi turadi. Natijada boshqarish vazifasidan asta-sekin boshqarishni takomillashtirishning mustaqil vazifasi ajralib chiqadi. Bu vazifa - moyillikdir, ya`ni kishilar faoliyatini ruhiy yo`llar bilan maqsadga muvofiqlashtirishdir. Bunda xodimni boshqarishning maqsadi samarali va mahsulida sxemalari uchun ularning kobilyatlarini kengaytirishdir. Demak, moyillik - kishi faoliyatini mahlum zo`r berish yoki kuch bilan majbur etishga, mahlum harakat qilishi natijasida va mahlum darajada qat’iyatlilik, halollik bilan maqsadlarga erishishga qaratilgan kuchlardir. Zamonaviy boshqarish ma`rifatli, o`z kasbini keng va chuqur egallagan, yuqori axloq me`yorlariga amal qilishni talab etadi. Ma`rifat va axloq orqali kishilarning iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini, xulqini o`rganish va tashkilot faoliyatida qo`llash katta muvaffaqiyatlarga olib keladi. Boshqaruv psixologiyasida zamonaviy rahbarga qo`yiladigan talablardan biri shuki, u hozirgi zamon psixologiyasining o`zi uchun ma`qul barcha uslublaridan foydalangan holda, eng

avvalo o`zi to`g`risida, qolaversa, qo`l ostidagilarning shaxsi to`g`risida bilimlar va ma'lumotlarga ega bo`lishi kerak. Ya`ni, mahlum ma'noda rahbar psixodiagnost bo`lishi, o`z faoliyatida psixodiagnostik metodlarni qo`llay olishi kerak. Chunki, o`zgalar psixologiyasini yaxshi bilish - ular ustidan hokimlikning usuli bo`lgani kabi, o`z shaxsiy fazilatlari va kamchiliklarini bilish ham, turli vaziyatlarda to`g`ri yo`l tutishning yo`lidir. Eng avvalo rahbar o`zining boshqaruvchilik faoliyatiga qanchalik loyiq ekanliginginzni aniqlab olishi kerak. Lavozimni egallashdan avval, u quyidagi sifatlarga ma'lum darajada ega bo`lishi kerak: rahbar tub ma'noda realist bo`lish kerak, ya`ni uning barcha harakatlari o`zi boshqarayotgan korxona yoki tashkilot manfaatlariga mos kelib, unga foyda keltirishi lozim;

rahbarning umuman odamlar haqida qanday tasavvurda ekanligi, ular to`g`risida nima deb o`ylashi, bu boradagi bilimlari juda muhim. Bu savolga agar u obyektiv, to`g`ri javob topolgandagina, uning o`zi haqidagi fikrlarini taxminan bilish mumkin bo`ladi. Shu kabi savollarga aniq javoblarning bo`lishi dastlabki paytda uning muvaffaqiyati va odamlar bilan ishlab ketishining real asosidir; o`zgalar faoliyati va jamoa ishini yaxlit tarzda boshqara olish, kerak bo`lsa hamma bajarayotgan ishni birgalikda hamma qatori bajara olishga tayyor bo`lishi lozim. Buning uchun u qatg`iy harakatlarga tayyor bo`lishi zarur.

Har qanday topshirilgan vazifani oxiriga yetkazish va bundan mag'lum bir qoniqish hissi hosil qilish uchun rahbar o`zida qobiliyat va kuch-quvvat zahirasiga ega bo`lishi shart. Buning uchun:

- o`z kuchi, salohiyati va qobiliyatlarini eng asosiy maqsadga qaratish va irodani aynan shunga sarf qilish;
- doimo tetik va sog`lom bo`lib, har doim ham ishga yaroqli ekanligini ko`rsata olish;
- boshqa xodimlar ham bajara olishi mumkin bo`lgan e'tiborsiz ishlarga qo`l urmay, ularning nazoratiga e'tiborni qarata olish ("delegirovanie");
- yon-atrofdagi boshqa tashkilot va korxonalardagi boshqaruv uslublari haqida ham ma'lumotga ega bo`lib, boshqaruvda ulardan ortda qolib ketmaslikka harakat qilish, korporatsiya usulidan unumli foydalanish.

Yuqorida sanab o`tilgan holatlar, albatta, rahbarning o`z ish faoliyatini samarali tashkil etish va dastlabki onlardanoq muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi. Bundan tashqari, psixologiyadagi qator psixodiagnostik uslublar, konkret metodikalar ham borki, rahbarning ish stolida ulardan eng qulay va ishonchlilari turishi, inson faoliyatini to`g`ri tashkil etishga bevosita aloqador bo`lgan allomalar va taniqli arboblarining asarlaridan ham bo`lishi uning ishiga faqat ijobjiy tapsir ko`rsatadi. Bir qator taniqli psixolog-olimlarning mashhur asarlari va ularning insonlar bilan muloqotda bo`lish sanhati har bir mutaxassisning o`z ishini tashkil etishida ko`makchi bo`lishi mumkin.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o`rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. Har bir kishining o`z "Men"i atrofdagilar bilan bo`ladigan muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxsning hayot yo`llari avval oilada, bog`cha, maktab, institut,

ishxona, keksalar orasida, ya’ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak mahnaviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga bo`lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo`lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo`lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo`lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Muloqot va uning turlari.

Pedagogik muloqot - bu muloqot turlaridan biri bo`lib, pedagogik faoliyatda muhim o`rin tutadi. Biz guruh va jamoaga kirar ekanmiz, doim unda turli rollarni bajarishga to`g`ri keladi. Rasmiy guruhda boshliq rolini o`ynasak, kasalxonada bemor, do`konda haridor, oilada rafiq yoki rafiqqa, ota-onas oldida esa farzandlik rolini bajaramiz. Pedagogik muloqotda ta’lim psixologiyasi, tarbiyaning psixologik asoslari, o`qituvchi va o`quvchi munosabatlari, o`qituvchi psixologiyasi, maktablarda ta’lim-tarbiya jarayonlarini boshqarish muhim o`rinni egallaydi. Ijtimoiy psixologiya turli ijtimoiy guruhlar, jamoaning psixik namoyon bo`lishi, katta guruhlar - jamoalarning kayfiyati, tafakkuri, raqobati kabilarni o`rganadi. Bu masalalarni hal qilishda muloqot psixologiyasini katta ahamiyatga ega. Boshqaruvda rahbarlarda nutq qobiliyatining rivojlanishi, shuningdek, xodimlar bilan til topa olish uchun muloqot psixologiyasini bilish zarur. Siyosatchilarda notiqlik mahorati shakllangan bo`lishi kerak, bunda ularga muloqot psixologiyasini yaxshi bilishlari yaqindan yordam beradi. Muloqot din psixologiyasi uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Din psixologiyasi diniy ong xususiyatlari, uning psixologik va ijtimoiy asoslari, vazifalari, tizimi, diniy his-tuyg`ular, diniy guruhlar psixologiyasini o`rganishda albatta muloqot sirlari, muloqot madaniyatini bilishga asoslanadi. Demak, muloqot psixologiyasi psixologiyaning barcha tarmoqlari bilan bog`liq holda rivojlanadi. O`zbek tiliga davlat maqomi berilganidan keyin birmuncha ijobiy o`zgarishlar yuz berdi, ularning bir qismi milliy istiqqloldan so`ng amalga oshirildi. Mamlakatimizdagi davlat hujjatlari ona tilida rasmiylashtirilmoqda, yig`ilishdagi mahruzalar o`zbek tilida qilinmoqda.

Ijtimoiy hayotdagi katta yutuqlar bilan bir qatorda, shaxslararo munosabatlarda til odobi, nutq madaniyatida buzilishlar davom etmoqda, o`zbek tilining mo`saffoligi, aniq va lo`ndaligi, mantiqiyligi, ohangdorligi va silliqligi muloqotda o`z ifodasini topa olmayapti, natijada uzatilayotgan fikrlarni idrok qilish qiyinlashmoqda. Muloqot psixologiyasining asosiy maqsadi, avvalo nutq madaniyatini yoshlarda shakllantirishdir. Shuningdek, o`qitish jarayonida bo`lajak mutaxassislarga muloqot madaniyati, muomala sirlarini singdirish, guruh va jamoalarda o`zaro munosabatlarni muloqot orqali yaxshilashdir. Muloqotning nazariy va metodologik muammolarini hal qilish, muloqotni nutq bilan birgalikda rivojlanishini tahminlash fanning asosiy maqsadini tashkil qiladi.


Muloqot psixologiyasining asosiy vazifalari quyidagilarda o`z ifodasini topadi: hamkorlikdagi faoliyat jarayonida shaxslararo o`zaro ta’sir va muloqot qonuniyatlarini o`rganish;

Sharq allomalarining muloqot haqidagi qarashlarini tahlil qilish;

yoshlarda faollikka undovchi muomalaviy imkoniyatlari mavjudligini tahlidlab o`tish;

yoshlarda kasbiy layoqatni faollashtirishga qaratilgan muloqotni shakllantirish; shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda muloqotning rolini orttirish; o`zaro ta'sir etishning ayrim oqibatlarini hisobga olish.

Muloqot aniq ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali belgilanadi. U ijtimoiy axloq normalari asosida tartibga solinadi. Individ hayotida muloqotning psixologik vazifalari turlichadir. Ya'ni:



Informatsion vazifa - axborotni qabul qilish va uni tarqatishdir.

Regulyativ vazifa - muloqotni tartibga solish va boshqalar bilan to`g`ri munosabatni tashkil qilishdan iborat.

Signal vazifasining ko`magida katta ahamiyatga ega voqeа va hodisalar haqidagi signalni qabul qilish va uzatish.

Nazorat vazifasi - axborotni qabul qilish va tarqatish jarayoni nazorat qilinadi.

Tarbiya qilish vazifasi - muloqot orqali shaxsni shakllantirish jarayoni bo`lib, nihoyat darajada muhim omil hisoblanadi.

Muloqot jarayonida obyektning maxsus tomonlarining borligi ham muhim hisoblanadi. Shuni aytish joizki, ko`p hollarda bunday shaxslar jamiyatdagi axloqsiz, odobsiz va vijdonsiz kishilardir. Muloqot jarayonida bahzi bir psixologik to`sifalar mavjud. Ko`proq ular sunhiy ravishda vujudga keladi:

- 1) motivatsion to`sifalar - shaxslarning muloqotga kirishishdan bosh tortishi, muomalani to`g`ri, aniq ko`rinishda olib borilishini xohlamasligi jarayonida namoyon bo`ladi;
- 2) aqliy (intellektual) to`sifalar - shaxsning boshqa shaxsga nisbatan bilim doirasining kengligi, mantiqiy fikrlashining chuqurligi va intellektual savodxonligi mazmunan boy bo`lgan taqdirda yuzaga keladi;
- 3) emotsional to`sifalar - muloqotga kirishuvchilarning psixologik va emotsional-irodaviy holatlaridan kelib chiqadi (agressivlik, qo`rquv, asabiylashish, xo`rlanish va boshqalar);
- 4) tarbiyaviy jarayondagi to`sifalar – ta`lim sohasida xamda huquqni muhofaza qilish organlarida «tarbiyasi qiyin» o`smirlar, nosog`lom oilalar va muqaddam sudlangan shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlar olib borayotgan vaqtda uchraydi.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o`zini-o`zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o`ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto`g`ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo`lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

- 1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsiyal muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.
- 2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiyasini tahminlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.
- 3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to`g`risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg`ulotlarni uyshtirish.
- 4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo`ljallangan ishbilarmonlik o`yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish. Aksariyat olimlarning tadqiqotlarida ko`rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri – bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. Bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:
e'tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo`ladi;
kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug`iladi;

avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug`iladi;

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o`zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Muloqot tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o`zini-o`zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Muloqot mazmuniga ko`ra quyidagi turlarga ajraladi:
moddiy muloqot deganda subyektni dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida, ayni paytda shug`ullanayotgan faoliyatining mahsulotlari va predmetlarini ayrboshlash tushuniladi;

kognitiv muloqot deb shaxslarning hamkorlikdagi faoliyatida narsa va hodisalarni o`rganish, ma'lumotlarni bilib olish jarayonida o`zaro bilim almashinuviga aytildi;

konditsion muloqotda psixologik va fiziologik holatlar ayrboshlanadi. Masalan, shifokor bemorning tushkun kayfiyatini ko`tarishi yoki aksincha, ona qizining o`ksinib yig`layotgan holatiga yig`i bilan munosabat bildirishi; motivatsion muloqot muayyan yo`nalishda hamkorlikda harakat qilish uchun o`zaro maqsadlar, qiziqishlar, motivlar va ehtiyojlar almashinushi jarayoni bilan izohlanadi;

faoliyat muloqoti kognitiv muloqot bilan uzviy bog`liq bo`lib, bunda harakatlar, operatsiyalar, ko`nikma va malakalar ayrboshlanadi. Bu muloqot jarayonida ma'lumotlar uzatiladi, bilim doirasi kengayadi, qobiliyatlar rivojlanadi va takomillashadi.

Muloqot maqsadiga ko`ra biologik va ijtimoiy ko`rinishda bo`ladi.

Biologik muloqot nasl qoldirish, organizmni rivojlantirish, himoyalash kabi tabiiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog`liq bo`lsa, ijtimoiy muloqot esa shaxslararo munosabatlarni kengaytirish, mustahkamlash, takomillashtirish bilan bog`liq bo`lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida namoyon bo`ladi. Muloqot vositasiga ko`ra bevosita va bilvosita bo`lib, bunda jonli mavjudotning tabiiy organlari yordamida ya'ni qo`li, boshi, tanasi, tovushi

yordamida axborot ayirboshlasa – bu bevosita bo`ladi, agar muloqotni tashkillashtirish va ma'lumot almashishda maxsus quroq va vositalardan foydalanilsa– bu muloqot bilvosita deyiladi.

Muloqotning yuqorida mulohaza yuritilgan turlaridan tashqari ishbilarmonlik va shaxsiy turlari ham farqlanadi. Ishbilarmonlik muloqoti odamlarning turli xildagi qo`shma mahsuldor faoliyati va mazkur faoliyatining sifatini oshirish vositasi sifatida yuzaga keladi. Shaxsiy muloqot esa shaxs o`zining psixologik muammolariga, qiziqishlariga, ehtiyojlariga, o`z hayotiga, atrofida nimalar bo`layotganligiga bo`lgan munosabatini atrofdagilardan bilishga yo`naltirilgandir. Muloqot turlari demokratik, avtoritar, liberal shaklida ham amalga oshadi.

Demokratik usulda suxbatlar, munozaralar, mulohazalar o`zaro tenglik, o`zaro hurmat ruhiga bo`ysundirilib, ta'sir o`tkazish sohalari yashiringan holda bo`ladi. Shu boisdan, tasodifan voqeа va hodisalarning sodir bo`lishi turlicha baholanadi, rag`batlantiriladi yoki jazolanadi. Mana bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta'sirida o`g'il-qizlarda do`stlik, dilkashlik, xushmuomalalilik, shaxsiy xatti-harakatida va mulohaza yuritishida mustaqillik, shaxsiy qarashlari saqlangan holda yangi norma va talablarga moslashish, o`z faoliyati uchun javobgarlik, emotsiyonal zo`riqish davrida o`z-o`zini qo`lga olishlik kabi muhim fazilatlar paydo bo`ladi.

Muloqotning yana bir shakli avtoritar deb atalib, bunda shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o`z ahamiyatini yo`qota boshlaydi. Masalan, boshliq tomonidan xodimlarning yurish-turishi, xatti-harakati ko`pincha cheklab qo`yiladi. Boshliq tomonidan ta'sir o`tkazishning asosiy metodi– jazolash hisoblanadi. Biroq onda-sonda rag`batlantirish metodidan foydalanilganda ham, u xodimga mahnaviy ozuqa bermaydi. Mazkur usul oilada qo`llanilsa, farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr hissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg`u uzoqlashish, «begonalashish» kechinmasiga aylanadi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar bolalarni qoniqtirmaydi; natijada odamovi, tund, ichimdagini top, tashvishlilik, xavotirlilik kabi sotsial norma va qoidalarga qiyinchilik bilan moslashishdan iborat xarakter hislatlari vujudga keladi. Shu sababdan oila a'zolari ruhiy dunyosida simpatiya(yoqtirish), empatiya(hamdardlik), samimiylilik, hayrixohlik kabi yuksak insoniy his-tuyg`ular juda nursiz ifodalanadi. Ko`rko`rona va so`zsiz bo`ysunishga asoslangan munosabatlar negizida yotgan tarbiyaviy ta'sir qo`rkoq va irodasi kuchsiz shaxsn tarkib toptiradi.

Muloqot shakli ichida liberal usuli ham ko`zga tashlanib turadi. Bu usul muloqot jarayonida murosasoz, ko`ngilchan bo`lishlik, tashqi ko`rinishdan iliq psixologik iqlimni, guruhiy moslikni o`zida aks ettingandek bo`lib tuyuladi. Afsuski, liberallik, murasasozlik har qanday vaziyatni til topib hal qilishga, printsipiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi. Masalan, ota-onalarning farzandlari bilan bunday munosabatda bo`lishlari salbiy oqibat sari yetaklaydi: qat'iylik, mustaqillik, dadillik va cho`rtkesarlik singari irodaviy sifatlar farzandlar ruhiy dunyosidan uzoqlashadi. Murosasozlik ta'sirida yosh

avlod xarakterida munofiqlik, ikkiyuzlamachilik va masuliyatsizlik kabi illatlar tarkib topishi mumkin.

Muloqotning psixologik vositalari. Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko`zlagan maqsadlaridan biri – o`zaro bir-birlariga ta'sir ko`rsatish, ya`ni fikr-g`oyalariga ko`ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o`zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko`rsata olish – psixologik ta'sir deyiladi.

Muloqotning pertseptiv jihat. Muloqotning ushbu jihatida bir kishining ikkinchi kishi tomonidan idrok qilinishi, tushunishi, baholanishi kuzatiladi. Muloqotning mazkur jihat quyidagi bosqichlar orqali amalga oshishining psixologik xususiyatlarini ko`rishimiz mumkin:

1) Idrok qilinayotgan odamni idrok qiluvchi o`zining shaxsiy hislatlari bilan qiyoslash natijasida, uning mahsuli bo`yicha talqin qilinadi va tushuntiriladi; bunday idrok qilish tarzida insonni inson tomonidan aks ettirish, o`xshatish, unga taqlid qilish, undan ibrat olish uslublari orqali yuzaga keladi, ya`ni identifikatsiya bosqichi bevosita amalga oshadi. Bunda kishi hamkorlikda harakat qilish vaziyatida sherigi o`rniga o`zini qo`yib ko`rib, uning ichki holati, niyatlar, o`y-fikrlari, xohish-istiklari haqida taxmin qiladi, bunda ular anglanilgan yoki anglanilmagan bo`lishi mumkin.

2) Idrok qilinayotgan shaxsning o`rniga idrok qiluvchi o`z xohishi bo`yicha mulohaza yuritishi, uni tushunishga intilish o`z-o`zini anglash negizida namoyon bo`ladi, ya`ni refleksiya bosqichi vujudga kelganligi to`g`risida muayyan qarorga kelinadi. Refleksiyada kishi idrok etish subyekti sifatida o`ziga nisbatan sheringining munosabati anglab yetiladi. Lekin kishi har doim ham muloqot jarayonida o`zini kim ekanligini to`liq anglab yetolmaydi, bu esa uning o`zi qilgan xatti-harakatlari sabablarini boshqalarga to`nkashga majbur qiladi. Kishi o`z xatti-harakatlari sabablarini, niyatlarini, o`y-fikrlarini, xulq-atvor motivlarini boshqa kishilarga to`nkash orqali tushuntirishi psixologiyada yuqorida ko`rsatib o`tkanimizdek kauzal atributsiya ya`ni sababiy izohlash deb ataladi.

3) O`zga kishilarning kechinmalari va his-tuyg`ulariga nisbatan hamdardlik bildirish, mehr-oqibatlilagini amaliy ifodalash orqali ularni tushunish imkoniyati tug`iladi, buning natijasida tub ma`nodagi empatiyaga asoslangan idrok qilish bosqichi yuzaga keladi.

O`zga kishilarga, ijtimoiy guruh a`zolariga nisbatan berilgan hislatlarni hozirgacha ma'lum bo`lgan ijtimoiy qoliplarga mos tarzda ommaviy tarzda yoyish, tavsif berish va baholash stereotiplashtirish deyiladi. Idrok etish subyekti ijobiy munosabatda bo`lgan shaxslarga ijobiy, yoqtirmaydigan shaxslarga salbiy baho berilishi kauzal atributsiyaga xos tipik hollardan biridir.

Identifikatsiyalash - bir kishining ikkinchi kishini, uning ta'rifini sub'ektning o`z tarificha anglab yoki anglamay o`xshatishi orqali tushunish usulidir (O`zini «uning» o`rniga qo`yib ko`rish etishmaydi).

O`zini qay tarzda idrok etishi va tushunishi ham muhim ahamiyatga egadir. Sub'ektning u bilan munosabatga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab etishi refleksiya deb ataladi. Refleksiya boshqa kishini idrok etish tarkibiga kiradi.

Agar har bir kishi o`zi munosabatga kirishgan odamlar to`g`risida doimo to`liq, ilmiy asoslangan axborotga ega bo`lganida ular bilan bo`ladigan o`zaro harakat taktikasini bexato va aniq ishlab chiqishi mumkin bo`lardi. Lekin sub'ekt kundalik hayotda bunaqa aniq axborotga ega bo`lavermaydi, bu esa uni ularning qilgan ishlari va xatti-harakatlarining sabablarini boshqalarga to`nkashga majbur qiladi.

Boshqa kishining xatti-harakatlari sababini, his-tuyg`ularini, niyatlarini, o`yfikrlarini va xulq-atvor motivlarini unga to`nkash yo`li bilan tushuntirish kauzal atributsiya (lotincha causo sabab, va atributo-qo`shib qo`yaman) ya`ni sababiy izohlash deb aytildi.

Stereotiplashtirish - xulq-atvor shaqlarini tasniflash va ularni hozirgacha ma'lum va mashhur deb sanalgan, ya`ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo`li bilan ularning sabablarini (ba'zan hech qanaqa asosiz) izohlashdan iboratdir.

Muomala teskari aloqa. Muomala muvaffaqiyatlari yuz berishi uchun muqarrar ravishda teskari alokaning mavjud bo`lishini - sub'ekt tomonidan o`zaro birgalikdagi harakat natijalarini haqida axborot olib turilishini taqozo qiladi. Shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa xabar beruvchi funktsiyani va o`zini o`zi boshqarish funktsiyasini bajaradi.

Muomalani mashq qilish. Odamlarda samarali muomala o`rnatish malakalari tasodifiy ravishda tarkib topadi yoki ta'limning yordamchi mahsuli sifatida yuz beradi.

Ijtimoiy psixologik trening yoki muomala treningi, ya`ni muomalaning mashq qilinishi bu vazifani hal etish yo`llidan biri sifatida namoyon bo`ladi.

Sotsial psixologik trening mazmunan ikki xil vazifani: birinchidan muomalaning va shu jumlaadan, pedagogik muomalaning umumiylari qonuniyatlarini o`rganishni, ikkinchidan, pedagogik komunikatsiyaning texnologiyasini egallash, ya`ni professional pedagogik muomala ko`nikma va malakalari shaqlantirilishini o`z ichiga oladi. Psixologik trening mashq qildirish orqali amalga oshiriladi.

Psixologik-pedagogik trening shaqlaridan yana biri tipik pedagogik vaziyatlarni, misol uchun imtihonlarni modellashtiruvchi amaliy o`yinlardir.

Munosabat-odamlar urtasida birgalikdagi faoliyat extiyojlaridan kelib chikadigan boglanishlar rivojlanishining kup kirrali jarayonidir.

Munosabat birgalikda faoliyat kursatuvchilar urtasida axborot ayriboshlanishini uz ichiga oladi. Bunday axborot ayriboshlanishi munosabatning kommunikativ jixati sifatida ta'riflanishi mumkin. Odamlar munosabatga kirisharkan, munosabatning eng muxim vositalaridan biri sifatidagi tilga murojaat kiladilar.

Munosabatning ikkinchi jixati - munosabatga kirishuvchilarning uzaro birgalikdagi xarakati - nutk jarayonida fakat suzlar bilan emas, balki xarakatlar, xatti-xarakatlar bilan xam ayriboshlashdan iborat. Univermag kassasi oldida

xisob-kitobni amalga oshirarkan xaridor bilan sotuvchi xatto ulardan birontasi xech kanday suz ishlatishma xam uzaro munosabatga kirishadi; xaridor kassirga xarid kilingan narsa uchun tovar cheki va pul takdim etsa, sotuvchi chek urib kaytimini sanab beradi.

Nixoyat, munosabatning uchinchi jixati munosabatga kirishuvchilarning birlarini idrok eta olishlarini takozo kilishidir. Masalan, munosabat buyicha sheriklardan biri boshkasini ishonsa buladigan, aklli, tushunadigan, tayyorgarlik kurgan kishi sifatida idrok etishi yo idrok etmasligi, yoki oldindanok u xech narsani tushunmaydi va xabar kilingan narsaning fmxiga yetmaydi, deb xisoblashi juda muximdir. Shunday kilib, yagona munosabat jarayonida shartli ravishda uchta jixatni-kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (uzaro birgalikda xarakat kilish) va perceptiv (uzarobirgalikda idrok etish) jixatlarni aloxida kuzatish mumkin.

Munosabat va faoliyatning birligi. Munosabatning birgalikdagi faoliyat bilan alokasi anik-ravshandir. Lekin shunday savol tugiladi: munosabat birgalikdagi faoliyatning bir kismi, tomoni, jixati xisoblanadimi yoki munosabat va faoliyat ikkita mustakil, tulakonli jarayonmi?

Kishi birgalikda faoliyat kursatayotganda zaruriyatga kura boshka odamlar bilan birlashishni, ular bilan muamalaga kirishishi, ya'ni aloka urnatishi, uzaro xamjixatlikka erishish, kerakli axborot olishi va javob tarikasida axborot berishi lozim va xokazo. Bu urinda munosabat faoliyatining bir tomoni, bir kismi, uning eng muxim informativ jixat, kommunikasiya (birinchi turdag'i munosabat) sifatida namoyon buladi.

Lekin odam kommunikasiya sifatida munosabatni uz tarkibiga olgan faoliyat jarayonida biron narsa yaratib (asbob yarati, fikr bildirib, xisoblar kilib, mashinani tuzatib va shu kabilarni amalga oshirib), shu bilangina cheklanib kolmaydi; u yaratilgan buyum orkali uzini, uzining xususiyatlarini, uzining individualligini boshka odamlarga "uzatadi", uzini boshka odamlarda (shu jumladan, faoliyat maksadlariga erishish uchun u aloka boglaydigan odamlarda xam va xatto "uzga odam" sifatida uzida xam) davom ettiradi.

Yaratilgan narsa (kurilgan bino, anik she'riy satr, utkazilgan daraxt, yaratilgan yoki ijro etilgan kushik)-bu, bir tomonidan, faoliyat mavzui bulsa, ikkinchi tomonidan esa vosita sifatida namoyon buladiki, kishi uning yordami bilan ijtimoiy xayotda uzini karor toptiradi. Negaki, bu narsa boshka odamlar uchun yaratilgandir. Shu narsa orkali odamlar urtasidagi munosabat bevosita uz aksini topadi, ijod kilayotganlarga va bajarilayotganlarga xam, iste'mol kilayotganlarga va uzlashtirayotganlarga xam bab-baravar tegishli bulgan umumiy ishlab chikarish tarikasidagi munosabat xosil buladi.

Munosabat va til. Munosabatning uzaro birlikda xaakat kilish va faoliyat kursatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa ishlabchikarish tarzida tushunilishi ana shu umumiy narsa avvalo munosabat vositasi sifatidagi tildan iborat ekanligini bildiradi. Til munosabatga kirishuvchilar urtasida aloka boglanishini ta'minlaydi. Negaki, uni bu maksad uchun tanlangan suzlar moxiyatiga kura kodlashtirilgan xolda axborotni ma'lum kilayotgan kishi xam, bu moxiyatni kodini ochgan, ya'ni uning ma'nosini oshkor etgan va ana shu axborot

asosida uz xulk-atvorini uzgartirgan xolda buaxborotni kabul kilayotgan kishi xam tushunadi.

Axborotni boshka kishiga yullayotgan kishi (kommunikator) va uni kabul kilayotgan kishi (resipiyyent) munosabat va birgalikdagi faoliyat maksadlariga erishish uchun moxiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagonasistemidan foydalanishlari, ya'ni "bitta tilda" suzlashishlari kerak. Agar kommunikator va resipiyyent kodlashtirishning turli xil sistemalarini kullaydigan bulsalar, bu xolda ular uzaro xamjixatlikka va birgalikda faoliyat borasidamuvaaffakiyatga erisha olmaydilar. Vaviloniya minorasi kurilayotgan paytida kuruvchilar kutilmaganda "aralash-kurashlash tilda" gaplasha boshlaganliklari okibatida uning agdarilib tushganligi xakida Injilda keltirilgan afsona kodlashtirish va kodlarni ochish jarayonlarini bir-birig boglash chogida uzaro birgalikda xarakat kilinmasligini aks ettiradi. Negaki, turli xil tillarda suzlashadigan kishilar bir-birlari bilan murosaga kela olmaydilar, bu esa birgalikdagi xarakatning amalga oshirilishini amri maxol kilib kuyadi. Kullaniladigan belgilar (suzlar, imo-ishoralar, iyerogliflar va xokazolar) zamiridagi moxiyat munosabatda ishtirok etayotgan shaxslarga tanish bulgan takdirdagina axborot ayriboshlash mumkin buladi.

Moxiyat-belgining tevarak-atrofdagi vokelikni bilishni ifoda etadigan kism sifatidagi mazmunga ega bulgan jixatidir. Kurol odamlarning mexnat faoliyatini ifodalagani singari belgilar xam ularning bilish faoliyati va munosabatini namoyon kiladi.

Suzlar belgilari sistemasi xayot kechirish, ijtimoiy-tarixiy tajribani uzlashtirish va uzatish vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi.

Til yordamida munosabatga kirishish tufayli borlikning alovida bir kishining miyasidagi in'ikosi boshka odamlarning miyasida aks etayotgani yoki aks etgani bilan doimiy ravishda tuldirilib turadi - uy-fikrlarni ayriboshli, axborot berish ruy beradi.

Munosabat chogida kishi doimo muxim narsani nomuximidan, zarur narsani tasodifiysidan ajratishga, yakka-yolgiz narsalarning timsolidan ularning xammasi uchun umumiylar bulgan xossalarni suzlar yordamida barkaror aks ettirishga utishga urganadi. Butun boshli narsalar doirasiga xos va shu asnoda suz yuritilayotgan konkret narsaga xam tallakuli muxim xususiyatlar shu suz orkali uz ifodasini topadi. Biz "gazeta" deb ataydigan bulsak, kulimida ushlab turgan gazeta varaklarinigina nazarda tutmasdan, mazkur narsaning boshka bosma maxsulotdan farkini xisobga olgan xolda uning kaysi toifadagi narsalarga tegishli ekanligini ukdiramiz.

Suzlar muayyan bir moxiyatga ega, ya'ni ashyoviy olamga allakanday tarzda tegishli buladi. Ukituvchiu yoki bu suzni ishlatganda uning uzi xam, uning tinglovchilari xam yolgiz usha bitta xodisani nazarda tutishadi va ularda anglashilmovchilik yuz bermaydi. Moxiyatlar sistemasi kishining butun xayoti davomida rivojlanib va boyib boradi. Uni sobitkadamlik bilan shakllantirish urta ta'limning xam, oliy ta'limning xam markaziy bugini xisoblanadi.

Muomalani mashq qilish. Odamlarda samarali muomala urnatish malakalari tasodifiy ravishda tarkib topadi yoki ta'limning yordamchi maxsuli sifatida yuz

beradi (birinchi sinf ukuvchisi "tulakonli javob" kaytarishga, katta yoshdag'i kishi unga murojaat kilayotganda urnidan turishga va xokazolarga urgatiladi). Katta maktab yoshidagi ukuvchilar xulk-atvor koidalariga bagishlangan ommabop adabiyotlarni (kisman oilaviy xayot etikasi va psixologiyasi kursida) ukirkan, muomala madaniyatining ba'zi jixatlari bilan tanishadi. lekin muaomala malakalarning maxsus urgatilishi alovida bir vazifa bulib, pedagog uchun uning kanchalik muxim ekanligini ta'riflash shart emasdir. Sosial psixologik trening yoki muomala treningi, ya'ni muomalaning mashk kilinishi bu vazifani xal etish yollaridan biri sifatida namoyon buladi.

Sosial-psixologik trening mazmunan ikki xil vazifani: birinchidan, muomalaning va shu jumladan, pedagogik muomalaning umumiylarini urganishni, ikkinchidan, pedagogik kommunikasiyaning "texnologyasi"ni egallah, ya'ni professional pedagogik muomala kunikma va malakalari shakllantirilishini uz ichiga oladi.

Psixologik-pedagogik trening shakllaridan yana biri tipik pedagogik vaziyatlarni, misol uchun imtixonlarni modellashtiruvchi amaliy uyinlardir. Muomala treningi, ya'ni muomalani mashk kilish ukituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish sistemasida pedagogik ishning yangi shakli bulib, pedagogik ta'lif uchun juda xam istikbolli xisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:


1. Muloqotning ko'p qirraligi va korinishlari
2. Munosabat va faoliyatning birligi.
3. Muloqot jarayonida psixologik tasir va uning turlari
4. Muomalani mashq qilish qanday amalga oshiriladi ?
5. Pedagogik muloqot nima ?
6. Verbal,noverbal,paralingivistik ta'sir nima?

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz Toshkent 2016 y
- 2.Karimov I.A. YUksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Z.Ibdullaev. "Tibbiyot psixologiyasi". T., 2008 yil darslik.
4. П.И.Ivanov .Zufarova."Umumiyl psixologiya" T., 2008 yil darslik.
- 4.A.Maqsudova."Muloqot psixologiyasi" .T.; 2006 yil darslik.
- 5.Nishonova va SH.Asomiddinova. «Psixologik maslahat» .T .2010 yil
- 6.Goziev E.F. Umumiyl psixologiya. Toshkent 2010
- 7.Davletshinnm.G. Psixologiyadan qisqaqa izohli lugat. Toshkent. 1999

MAVZU: BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI

(4 soat)



REJA:

- 1.Psixologiyada boshqaruv muammolari.
2. Boshqaruv psixologiyasida motivlashtirish va ehtiyoj.
3. Boshqaruvda psixologiyasida rahbarlik va liderlik jihatlari.

Asosiy tayanch tushunchalar.

Rahbar, qobiliyat, motivlashtirish, ehtiyoj, rag`bat, talab, barqarorlik, gigienik omillar, guruh, lider, su`erlider, avtoritet, avtoritar, demokratik, liberal, rahbarlik, boshqaruv jarayoni.

Psixologiyada boshqaruv muammolari.

Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiborning ortib borishi munosabati bilan boshqaruv psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo`limi - boshqaruv psixologiyasi paydo bo`ldi. Boshqaruv psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmog`iki, u boshqaruv faoliyati bilan bog`liq bo`lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o`rganadi.

Boshqaruv muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o`rganiladi, jumladan, falsafa, tarix, iqtisod, huquqshunoslik va psixologiya uning o`ziga xos tomonlarini ochish bilan shug`ullanadi. psixologiya boshqarishni ham obyekti, ham subyektini o`rganadi. psixologik tadqiqotlarda o`rganiladigan olimlar jamoasi, alohida shaxs, ularning psixologik holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boshqaruv obyekti deb aytildi. Boshqaruvning subyekti o`rganilganda esa odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi.

Boshqaruv psixologiyasi - boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyathlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko`ra u boshliq darajasiga ko`tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik tapsir ko`rsatish maqsadida u qanday tapsir uslublarini qo`llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo`lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil, chunki kimdir boshliqda bo`lgan imtiyozlarga beriladi, kim uchundir unga berilajak huquqlarni afzal ko`rish xos, kimgadir yuksak mas'uliyatlarni bo`yinga olish ma'qul keladi. Shaxslarning boshliq funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo`lmashin, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo`llash, ularga bosh bo`lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro`ga ega bo`lish, har bir

qilingan ish uchun javobgarlikni o`z buyniga olish kabi ko`plab sifatlarning mujassam bo`lishi talab qilinadi.

Ayniqsa boshliq uchun turli guruhlardagi, ko`p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o`zida, bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning harakteriga javobgar bo`lish qiyinchiliklar tug`diradi, chunki o`sha guruhlarni tashkil etgan har bir shaxsning o`ziga xos individualligi, boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishslash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr-qanoatning bo`lishini talab qiladi.

Ijtimoiy faoliyat jamiyatdagi, jamoadagi, oiladagi yurish-turish tamoyillari inson aql-zakovatining yoki boshqacha aytganda tabiiy intellektning talablarini qondirish rahbarlar, mutaxassislar, oddiy xodimlar bilan munosabatda bo`lish, bir tizim doirasida faoliyat ko`rsatayotgan odamlar orasida ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ruhiy tarbiyaviy munosabatlar o`rnatish kabi muhit bilan qurshovda bo`lishi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqan holda ijtimoiy faoliyatda xulq va axloq kabi umumiy tushunchalarni ajratib qarash o`rinlidir.

Xulq - kishining jamiyatda yashab namoyon etadigan, shakllanadigan tushuncha bo`lib, u kishining yurish-turishida, axloqida, munosabatida, xotirasida, tafakkurida namoyon bo`ladigan ijtimoiy ongning bir ko`rinishidir.

Axloq - jamiyatdagi, jamoadagi, oiladagi, yurish-turish tomiyillari yig`indisi. Axloq - kuzatib boradigan huquq me`yorlaridan farq qiladi. Axloq jamiyatichilik fikriga va tapsiriga, ehtiqed, anhana va odatga, urf-odatga, kishining o`z xulq-atvorini boshqarishga tayyorligiga, mehribon va xushmuomalaligiga, ishda hamkasblari bilan madaniyatli munosabatda bo`lishga, mehnat, ishlab chiqarish, moliya intizomlarini saqlashiga tayanadi. Axloq kishining og`ir sharoitda o`zini tuta bilishida, bo`ysunuvchilariga to`shiriq berayotganda xushmuomala bo`lishda, qo`l ostidagilarga nisbatan e`tiborli bo`lishda, ular muvaffaqiyatini o`z vaqtida taqdirlashida o`z ifodasini to`adi.

O`zbekiston Respublikasining mustaqilligi uning fuqarolariga inson erkinligi huquqlaridan foydalanishga keng yo`l ochib berdi. Ayniqsa, ijodkorlarga, ixtirochilarga, aqliy mulk egalariga qulay sharoitlar yaratdi. Ular o`z aql-zakovat mulkini: ixtirolari, ilmiy kashfiyotlari, texnologik yangiliklari, uslubiy ishlanmalarini tovar sifatida erkin sotish imkoniyatiga ega bo`lishdi. Bu: xalqimiz ichidan yangi ixtirochilar, ijodkorlarning o`sib chiqishiga xizmat qilsa; ma`naviyat, ma`rifat, ilm-fan kabilarning o`sishiga imkoniyat yaratadi.

Bugungi sharoitda boshqarish vazifasi qanchalik murakkab, tabaqalashgan bo`lgani sari, rahbarlik qilish oldida har qanday vazifa ichida ham vazifalararo yo`nalishda ham boshqarishni takomillashtira olish vazifasi turadi. Natijada boshqarish vazifasidan asta-sekin boshqarishni takomillashtirishning mustaqil vazifasi ajralib chiqadi. Bu vazifa - moyillikdir, ya`ni kishilar faoliyatini ruhiy yo`llar bilan maqsadga muvofiqlashtirishdir. Bunda xodimni boshqarishning maqsadi samarali va mahsulida sxemalari uchun ularning kobilyatlarini kengaytirishdir.

Demak, moyillik - kishi faoliyatini mahlum zo`r berish yoki kuch bilan majbur etishga, mahlum harakat qilishi natijasida va mahlum darajada qat’iyatlilik,

halollik bilan maqsadlarga erishishga qaratilgan kuchlardir. Zamonaviy boshqarish ma'rifatli, o'z kasbini keng va chuqur egallagan, yuqori axloq me'yorlariga amal qilishni talab etadi. Ma'rifat va axloq orqali kishilarning iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini, xulqini o'rganish va tashkilot faoliyatida qo'llash katta muvaffaqiyatlarga olib keladi.

Boshqaruv psixologiyasida zamonaviy rahbarga qo'yiladigan talablardan biri shuki, u hozirgi zamon psixologiyasining o'zi uchun ma'qul barcha uslublaridan foydalangan holda, eng avvalo o'zi to`g`risida, qolaversa, qo'l ostidagilarning shaxsi to`g`risida bilimlar va ma'lumotlarga ega bo`lishi kerak. Ya'ni, mahrum ma'noda rahbar psixodiagnost bo`lishi, o'z faoliyatida psixodiagnostik metodlarni qo'llay olishi kerak. Chunki, o`zgalar psixologiyasini yaxshi bilish - ular ustidan hokimlikning usuli bo`lgani kabi, o'z shaxsiy fazilatlari va kamchiliklarini bilish ham, turli vaziyatlarda to`g`ri yo`l tutishning yo`lidir.

Eng avvalo rahbar o`zining boshqaruvchilik faoliyatiga qanchalik loyiq ekanliginginzni aniqlab olishi kerak. Lavozimni egallahdan avval, u quyidagi sifatlarga ma'lum darajada ega bo`lishi kerak:

rahbar tub ma'noda realist bo`lish kerak, ya'ni uning barcha harakatlari o'zi boshqarayotgan korxona yoki tashkilot manfaatlariga mos kelib, unga foyda keltirishi lozim;

rahbarning umuman odamlar haqida qanday tasavvurda ekanligi, ular to`g`risida nima deb o`ylashi, bu boradagi bilimlari juda muhim. Bu savolga agar u obyektiv, to`g`ri javob topolgandagina, uning o'zi haqidagi fikrlarini taxminan bilish mumkin bo`ladi. Shu kabi savollarga aniq javoblarning bo`lishi dastlabki paytda uning muvaffaqiyati va odamlar bilan ishlab ketishining real asosidir; o`zgalar faoliyati va jamoa ishini yaxlit tarzda boshqara olish, kerak bo`lsa hamma bajarayotgan ishni birgalikda hamma qatori bajara olishga tayyor bo`lishi lozim. Buning uchun u qatg'iy harakatlarga tayyor bo`lishi zarur.

Har qanday topshirilgan vazifani oxiriga yetkazish va bundan mag'lum bir qoniqish hissi hosil qilish uchun rahbar o`zida qobiliyat va kuch-quvvat zahirasiga ega bo`lishi shart. Buning uchun:

- o'z kuchi, salohiyati va qobiliyatlarini eng asosiy maqsadga qaratish va irodani aynan shunga sarf qilish;
- doimo tetik va sog`lom bo`lib, har doim ham ishga yaroqli ekanligini ko`rsata olish;
- boshqa xodimlar ham bajara olishi mumkin bo`lgan e'tiborsiz ishlarga qo'l urmay, ularning nazoratiga e'tiborni qarata olish ("delegirovanie");
- yon-atrofdagi boshqa tashkilot va korxonalardagi boshqaruv uslublari haqida ham ma'lumotga ega bo`lib, boshqaruvda ulardan ortda qolib ketmaslikka harakat qilish, korporatsiya usulidan unumli foydalanish.

Yuqorida sanab o`tilgan holatlar, albatta, rahbarning o'z ish faoliyatini samarali tashkil etish va dastlabki onlardanoq muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi. Bundan tashqari, psixologiyadagi qator psixodiagnostik uslublar, konkret metodikalar ham borki, rahbarning ish stolida ulardan eng qulay va ishonchlilari turishi, inson faoliyatini to`g`ri tashkil etishga bevosita aloqador bo`lgan allomalar va taniqli arboblarining asarlaridan ham bo`lishi uning ishiga faqat

ijobiy tapsir ko`rsatadi. Bir qator taniqli psixolog-olimlarning mashhur asarlari va ularning insonlar bilan muloqotda bo`lish sanhati har bir mutaxassisning o`z ishini tashkil etishida ko`makchi bo`lishi mumkin. Boshqaruv psixologiyasida motivlashtirish va ehtiyoj.

Oldingi boblarda to`xtalib o`tganimizdek, motivatsiya - biror ish yoki harakatning yuzaga kelishiga sababchi bo`lgan motivlar, dalillar baholar, vajlar yoki sabablar majmui ma`nosida talqin etiladi. Bu tushuncha bevosita inson omili bilan chambarchas bog`liqdir. Shu nuqtai nazardan: motivlashtirish - bu ruhiy omil bo`lib, shaxs faolligining manbai, sababi, dalili va har xil turli ehtimollaridir.

Boshqaruv psixologiyasida - xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag`batlantiruvchi kuchli vositadir. Boshqacha qilib aytganda, motivlashtirish - bu kishilar faoliyatini ruhiy yo`llar bilan maqsadga muvofiq yo`naltirishdir. U muayyan ehtiyojni qondirish bilan bog`liq. Ehtiyoj esa sabablarda namoyon bo`ladi. Inson tirik jon sifatida ovqat yeyish, uplash, dam olib o`z kuchini tiklash, o`zini issiq – sovuqdan asrash ehtiyojlariga ega. Mazkur ehtiyojlar moddiy, ya`ni kiyim – kechak, oziq-ovqat, turar-joy va boshqalar shaklida ifoda etiladi. Insonning moddiy ehtiyojlari bilan birga ijtimoiy ehtiyojlari ham borki, bularga bilim olish, madaniy saviyani oshirish, malaka, mahoratga ega bo`lish va sog`lom hayot kechirib, uzoq umr ko`rish kiradi. Aytilgan ehtiyojlar moddiy shaklga ega bo`lmagan har xil xizmatlar ko`rsatish orqali qondiriladi. Umuman, ehtiyoj - odamlarni harakatga intiltiruvchi, qo`zg`atuchi motivdir. Ehtiyoj qat'ian tabaqlashgan bo`ladi. Ya`ni, u kishilarning: odati, didi, ruhiyati, yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, millati, mehnati, yashash sharoitlari va hokazolarga ham bog`liq bo`ladi.

Masalan, maktab o`quvchisi bilan talabaning, yosh yigit bilan ‘ensionering, dehqon bilan iqtisodchining ehtiyoji bir xil emas. Hatto kishilarning jismoniy tuzilishi ham, ehtiyojlarda faqlarni hosil qiladi. Aytaylik, gavdasi yirik, devqomat kishining ehtiyoji bilan jussasi kichik kishining ehtiyoji bir emas. Eng muhimi xilma-xil ehtiyojni qondirish uchun xilma-xil faoliyat va uni muvofiqlashtiruvchi boshqaruv talab qilinadi. Ko`rinib turibdiki motivatsiya jarayoni qandaydir (bilib yoki bilmay orzu qilinayotgan) ehtiyojga bo`lgan yetishmovchilikdan yoki qoniqishning yetarli, yohud umuman yo`qligidan boshlanadi. So`ngra shu qoniqishga erishish uchun maqsad sari harakat qilinadi. Ehtiyojning qondirilish darajasi kishini kelajak sari intilishini belgilab beradi. Agar u muayyan narsadan qoniqish hosil qilsa, u holda keyingi motiv uni boshqa yuqoriq ehtiyojga rag`batlantiradi.

Jahon amaliyotida motivatsiya vositasida unumli mehnatga undovchi turli nazariyalari mavjud. Bular jumlasiga:

“x” va “y” nazariyasi;

kutish nazariyasi;

boisiy (giglenik) tozalanish nazariyasi;

adolatlilik (haqqoniylilik) nazariyasi;

ehtiyojlar ustunligi nazariyasi.

Ehtiyojlar ustunligi nazariyasi negizida kishilar ehtiyojlari va qiziqishlari orqali ularning mehnatlarini motivlashtirish g`oyasi yotadi. 1,2 va 4 yondashuvlar

rahbar bilan xodimlar o`rtasidan qarshi harakatga olib keladi. Natijada rahbar va jamoa, rahbar va ayrim xodimlar ehtiyojlar o`rtasida nomuvofiqlikning paydo bo`lishiga sabab bo`ladi. Shu sababli rahbar motivlashtirishni faqat ehtiyoj va qiziqishlar yordamida amalga oshirishi lozim.

Ehtiyojlar ustunligi nazariyasi ham rahbarlardan boshqarishni faqat ehtiyoj va qiziqishlar vositasida, ya`ni 3-yondashuv orqali amalga oshirishni talab qiladi. Chunki boshqa yondashuvlarga qarshi harakat bo`lib, xodimlar va jamoa bilan rahbariyat o`rtasida ixtiloflarga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, boshqaruvda motivlashtirish modellari va strategiyalari haqida to`xtalib o`tsak. Motivlashtirish nazariyasiga asoslanib uning turli modellari ishlab chiqilgan va amaliyatda qo`llanib kelinmoqda. Ularning asosiyлари quyidagilardir:

oqilona yoki ratsional model;
insoniy munosabatlarni motivlashtirish modeli;
kompleks motivlashtirish modeli.

Bu yerda kishilar uchun moliyaviy dastak mukofot va jazo qo`llaniladi. Bu “shirin kulcha” va “qamchi” taktikasidir. Ba`zi hollarda bunday yondashish to`g`ri bo`lishi mumkin, ammo uning samarasi juda qisqa bo`ladi. Boshqa hollarda esa u kishilar o`rtasidagi munosabatga putur yetkazishi mumkin. Bu modelning muallifi amerikalik ruhshunos Emirson Mayo bo`lib, uning negizida quyidagi g`oya yotadi. Bu - ichki omillar: shuhrat topish, ijroni yaxshilash va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish ishdan qoniqishga olib keladi. Ishdan qoniqish esa mehnat unumdarligini oshiradi. Bunday yondashuv eng muhim tashqi omilni, ya`ni ish haqini inobatga olmaydi. Go`yoki “mamnun, ya`ni - ehtiyoji qondirilgan kishi bu unumli, samarali ishlaydigan kishi” emish. Bunday o`ylash albatta, noto`g`ri va soddalikdir. O`z-o`zini mukammallashtirish Maslou va Xouberg yondashuvlarga asoslangan bo`lib, uzoq muddatli motivatsiyani ta`minlovchi omillar sifatida nafaqat ichki omillar, shuningdek tashqi omillar ham muhim deb qaraladi.

Motivlashtirish strategiyasini tanlashda uchta yondashuv bilan birga - rag`batlantirish va jazo strategiyasi mavjud:

kim ko`p va yaxshi ishlasa, unga yaxshi haq to`lanadi;
2) kim undan ko`p ishlasa shunchalik ko`p haq to`lanadi;
3) kim sifatsiz ishlasa, u jazolanadi.

Ish orqali motivlashtirish bu: xodimga uni qoniqtiradigan ishni bersangiz bas, ijo etish sifati yuqori bo`ladi. Menejer bilan doimiy aloqada bo`lish strategiyasi: bo`ysunuvchilar bilan birga maqsadni aniqlab olish, unga ijobiy aks aloqaga imkon berish, hattoki u to`g`ri yoki noto`g`ri, yohud yengilgan hollarda ham. Bu motivlashtirish modeli rahbar bilan xodim o`rtasidagi munosabatni tahlil qilish va unga ustuvorlik berishga asoslanadi. Motivlashtirishning quyidagi usullari qo`llaniladi:

pulni rag`batlantirish va mukofotlash sifatida ishlatish;
jazolash;
raqobatni kuchaytirish;
ish orqali motivlashtirish;

yutuqni tan olish va taqdirlash;
xodimlarni o`qitish va yuksaltirish;
salbiy tapsirchan cheklash va me`yorlash;
guruh mehnatini mukofotlash va rag`batlantirish;
xodimlarni boshqarish ishlariiga jalb va hokazo.

Boshqaruv psixologisida qator motivlashtirish nazariyalari mavjud. Oldingi boblarda ko`rsatib o`tganimizdek, amerikalik ruhshunos Abraham Maslou XX asrning 40-yillarida o`zining ehtiyojlari ustunligi nazariyasini yaratib, kishilar o`z motivlari jarayonida ehtiyoj va qiziqishning 5 turiga tayanadilar dedi. Uning ehtiyojlari ierarxiyasi mavjud bo`lib, birinchi o`rindagi ehtiyojlar bu - bazis ehtiyojlar, ya`ni yashashni ta`minlash uchun zarur bo`lgan ehtiyojlar. A. Maslouning fikricha, inson, eng avvalo ana shu bazis ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydi. Bazis ehtiyojlar, ya`ni oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, uy-joyga, uyquga bo`lgan ehtiyoj qondirilsa, boshqa darajadagi ehtiyojlar ham asta-sekin ahamiyat kasb etib boradi.

Alovida shaxs va jamiyat nuqtai-nazaridan ehtiyojlarni quyidagicha guruhash mumkin:

Shaxs uchun: Asosiy ehtiyojlar: oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga, dam olish va sog`liqqa.

Ijtimoiy ehtiyojlar: ijodiy mehnatga, oila va muhabbatga, bilim va axborotga, toat-ibodatga, jasoratga, naslni davom ettirishga, tartib va barqarorlikka, bo`sh vaqt va dam olishga, o`zlikni anglashga.

Rag`bat va talablar: moddiy, ijtimoiy, estetik.

Jamiyat uchun: Asosiy ehtiyojlar: mehnatga, xavfsizlikka, qo`shimcha mahsulotga, boshqarishga.

Ijtimoiy ehtiyojlar: barqarorlikka, ishonchga, mustaqil taraqqiyotga.

Rag`bat va talablar: zamonaviy ishlab chiqarishga, ma`naviy-ma'rifiy taraqqiyotga, rahm-shafqatga.

Masalan, xavfsizlikka, ya`ni tinchlik tartib, himoyaga bo`lgan ehtiyoj ham birlamchi bosqichdagi ehtiyojning yangi darajasidagi zaruriyatdir. Biron ijtimoiy guruhdan bo`lmish, boshqa kishilar bilan aloqaga kirishish ehtiyoji ierarxiyaning uchinchi bo`g`iniga kiradi birlamchi ehtiyojlar qondirilgach, boshqa zaruriyatlar kishilarni yuqori darajadagi ehtiyojlarga qarab harakat qilishga majbur qiladi. Xo`sh, bu ehtiyojlarni qondirish uchun rahbar qanday usul va yondashuvlarni qo`llashi kerak.

Ruhshunos va tarixchi olim Fredrix Gertsbergning ikki faktorlik motivatsiya nazariyasi asosida qoniqish keltiruvchi mehnat - ruhiy sog`lom bo`lishga ham hamkorlik ko`rsatadi deb ta`kidlaydi. Buni quyidagi omillar guruhi bilan izoxlash mumkin:

birinchi guruh omillar - “gigiyenik omillar” deb ataladi. Agar ish joyi iflos bo`lsa, qorong`u, ko`rimsiz bo`lsa, bu mehnatga intilishni susaytiradi. Aksincha, ish joyi toza, ergonometrik nuqtasi nazardan benuqson bo`lsa, mehnatga aniq yo`naltirilgan motivlar paydo bo`ladi.

ikkinci guruh omillar – mehnatga undovchi omillar. Ya`ni, mas’uliyat, muvaffaqiyatga erishish, keljakda karyera uchun imkoniyat yaratilishi, qilgan

xizmatlarini tan olinishi. Bu yerda pul masalasi ham muhimdir. Ammo pulga intilish insonni butunlay egallab olsa, u ko`payishga moyillik tug`dirib, uni boshqalarga nisbatan buyukligini isbotlashga olib keladi. Natijada kishilardan va jamoadan ajrab qoladi. Gertsberg nazariyasi Maslou nazariyasiga zid emas, balki uni to`ldiradi.

Psixologiyada kutish nazariyasi amerikalik ruhshunos V.Vrum tomonidan 1964 yilda ishlab chiqilgan. Uning mohiyati - motivatsiya nafaqat ehtiyojni qondirishga, shuningdek maqsadga erishish uchun tanlangan xohishga ham bog`liq. Kutish nazariyasida quyidagi omil asosiy o`rin tutadi. Kutilgan narsa qanchalik qoniqishga olib kelsa, shunchalik motivatsiya kuchli bo`ladi. Bu degan so`z - ehtiyoj tushunchasidan tashqari rahbar murakkab, qiyin ishga, astoydil ishlangan yaxshi ham to`lanadigan va rag`batlantiradigan vaziyatlarni yaratishi kerak. Kutish nazariyasining mohiyati ham shuni taqozo etadi.

Adolatlilik nazariyasiga (J.Adams) binoan kishilar o`zлari erishgan rag`bat darajasini shu tizimda band bo`lgan boshqa kishilar erishgan rag`bat darajasi bilan qiyosiy taqqoslaydi: J.Adams fikricha, harajat tarkibida nafaqat xodimning mazkur ishni bajarishga sarflangan mehnati shu bilan birga uning shu korxonada ishlagan ish stoji, malaka darajasi, yoshi, ijtimoiy mavqeい kabilar ham inobatga olingan.

Boshqaruv psixologiyasida menejerlar xodimlarning tashabbusini doimo rag`batlantirib turish maqsadida quyidagi maslahatlarga rioya qilishlari muhim: yangiliklar qo`llab-quvvatlashib, rag`batlantirib borilgandagina vaziyat yaratish uchun mas`uliyatni o`z ustingizga oling;

topqir bo`ling, mehnatni doim tashkil etishning yangi shakllarni izlash va xodimlar o`rtasida o`zaro ijodiy ishlarni avj oldirishga harakat qiling;

tashkiliy ishlar madaniyatiga, tashabbusni bo`g`ib, cheklab qo`yadigan odatdagi rasm-qoidalarga o`z diqqatingizni jalb qiling;

qo`l ostingizdagi kishilar o`z fikrlari va bilgan narsalari to`g`risida bir-biri bilan, siz bilan o`rtoqlashishni istaydigan bo`lishlari uchun ochiq ko`ngillik va erkinlik vaziyatni yarating;

boshqalarning o`z umrini yashab bo`lgan eski uslubidan voz keching. Mayda-chuyda narsalarga ahamiyat bermang;

befarqlik va hatto qarshilikka ham duch kelib qolishingiz mumkin, bunga tayyor turing. Ishning foydasi uchun ijodiy tashabbusi kerakligini izchillik bilan tushuntirib berish yo`li bilan bularni asta-sekin yengib o`tish mumkin;

yangi vazifalarni aniq-ravshan, tushunarli va yaqqol qilib ta`riflab bering. Ularning qanday ado etilayotganligini doimo nazorat qilib boring. Ijodiy ravishda yondashishni talab qiladigan vazifalarni alohida ko`rsatib o`ting. Qimmatli resurslarni, odamlarning vaqt va kuch-quvvatlarini sarflaydigan, lekin ish faoliyatingizning rivojlanishiga yordam bermaydigan eski mahsulotlar, xizmatlar, chora-tadbirlardan voz keching;

o`z xodimlaringizning shaxsiy xususiyatlarini bilib oling va hisobga oladigan bo`ling. Har bir kishining qobiliyatlarini alohida baholang;

maqsad va vazifalarni shu tariqa shakllantiringki, toki ular mazkur ishlarni bajarishda qatnashadigan xodimlarning shaxsiy manfaatlariga imkonи boricha ko`proq mos keladigan bo`lsin;

xodimning o`z qadrini bilishiga va oldiga qo`yilgan vazifani uddalashga bo`lgan istagini qo`llab-quvvatlab boring;

xodimlarning o`z shaxsiy fazilatlari va bilimlarini namoyon qilishlari uchun hamma imkoniyatlarni yaratib bering. Kishi nechog`li ko`proq bilimdon bo`lsa, mehnatga rag`bati, o`ziga ishonch bilan qarab mustaqil ishlay olsa, mehnatining qadri shuncha yuqori bo`ladi.

Shu bilan bir qatorda, boshqaruvning tabiatan har xil odatlarga bir xilda mos tushadigan usuli yo`q. Yaxshi boshliq kerak paytda boshqarishning yo liberal yoki demokratik usuli yoki avtoritar usulini tanlay oladigan yaxshigina psixologdir. Muammolarni ijodiy yo`l bilan hal etish uchun mehnat resurslari va moddiy resurslardan foydalanishning mumkin qadar ko`proq usullarini qo`llash, mehnat intizomiga rioya etilishini nazorat qilib borish, turli xodimlar o`zlarining ijodiy qobiliyatlariga qanday baho berishini va shu qobiliyatlarini ularning har biri qay tariqa namoyon qilmoqchi ekanliklarini o`ylab ko`riish, vazifani aniq-ravshan qilib o`rtaga qo`yish va kutiladigan natijani taxminan tasvirlab berish mehnat unumdorligini samarali bo`lishiga o`z tapsirin ko`rsatadi.

Boshqaruvda psixologiyasida rahbarlik va liderlik jihatlari.

Boshqaruvda lider asosan, guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqaradi. U hech qachon yolg`iz bo`lmaydi, gurux a`zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider gurux a`zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlarini, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarini hamidan ham yaxshi biladi. Ular ichida eng tashabbuskoridir. Bundan tashqari, liderlikning uslublari va sifatlari ham alohida o`rganilgan. Guruhda rahbarlik haqida fikr ketganda, avvalo, guruh haqida qisqacha psixologik izoh berish lozim.

Guruh - bu umumiyl belgilar, umumiyl faoliyat, muloqot hamda umumiyl maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasidir. Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o`ziga xos qonuniyatlarga bo`ysunadi. Ayni shu qonuniyatlarni bilish esa turli tipli guruhlarni tashkil etuvchilarni tarbiyalashning asosiyl mezoniidir. Shu guruhdagi rasmiy munosabatlarning boshqaruvchisi rahbardir. Guruhda rahbarlik, maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida, saylovlar oqibatida sodir bo`ladi. Bundan tashqari, rahbar liderda yo`q bo`lgan rag`batlantirish tizimiga ega bo`lib, shu asosda o`z xodimlariga tapsir o`tkazishi mumkin. Rahbar guruhda u yoki bu qarorlar va ko`rsatmalarni o`z ixtiyoricha bajara olmaydi, u ko`plab rasmiy ko`rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar doirasidan chiqib ketishi qiyin bo`ladi.

Guruxdagi o`zaro munosabatlar yuqorida `astga yoki aksincha bo`lab, gurux a`zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan buysunuvchilar o`rtasidagi munosabatlarni o`z ichiga oladi. Bu borada «lider» va «rahbar» tushunchalari o`rtasidagi farqlar haqida gapirish mumkin. B.D. ‘arigin bu ikki tushunchani farqlab shunday yozadi:

lider – guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar - shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

liderlik kichik guruhlardagina xos bo`lgan hodisa bo`lsa, rahbarlikning haq-huquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo`lishi, amalga oshirilishi mumkni; agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo`lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqarilgan normalar, tartiblar asosida saylov oqibatida sodir bo`ladigan hodisadir;

liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo`lib, gurux a`zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yo`nalishiga qarab uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro`y beradi;

rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo`q bo`lgan jazolash va rag`batlantirish tizimiga ega bo`lib, shu asosda o`z xodimlariga tapsirini o`tkazishi mumkin. Bu psixologik tapsir shundayki, biron-bir manfaatni ko`zlab qilingan ishda erishilgan yutuqlar uchun boshliq xodimlarini ko`tarinki rux bilan rag`batlantirib mukofatlab tursa, o`sha yerda xodimlar o`zlari bilmagan holda boshliqqa nisbatan ijobiy munosabatda bo`lishada;

lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko`rsatmalar, tashabbuslarni o`z ixtiyoricha, bevosita chiqarish mumkin. Rahbarda esa bu yo`nalishda ko`plab rasmiy ko`rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mayjudki, rahbar - bular doirasidan chiqib ketishi kiyin. Ko`p hollarda rahbar lider uslubini qo`llasa, bu jamiyat tamonidan «o`zboshimchalik», «qonunga bo`ysunmaslik» deb qoralanadi;

liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshiriladi, rahbar shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakil bo`lgani uchun vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Boshqaruv psixologiyasida tashkilotchilik qobiliyati muhim o`rin tutadi:

jamoani uyuشتира олиш ва жамоани жипислаштириш;

o`zini shaxsiy ishini to`g`ri tashkil qila olish qobiliyatidir.

O`z ishini tashkil qila bilish deganda, uning o`z ishini to`g`ri rejorashtirib, uni nazorat qila olish nazarda tutiladi. Jamoa faoliyatini va o`z faoliyatini rejorashtirish qobiliyati rahbar uchun muhim bo`lgan talablardan biridir. Boshqarish bevosita jamoaga qaratilgan bo`lib, uning psixologik natijasi o`zlikka nisbatan hurmat, o`zlikni anglash, qadrlash kabilarni vujudga keltiradi.

Boshqaruv faoliyatida liderlik, lider-rahbar ijtimoiy psixologik fenomeniga katta e'tibor beriladi. Liderlik fenomenini tahlil qilishdan oldin avtoritet tushunchasini ko`rib chiqish lozim.

Avtoritet - (lotincha “hokimiyat, tapsir ko`rsatish”) ijtimoiy psixologiyada odam, ijtimoiy guruh, jamoat tashkilotining boshqalarga tapsiri, boshqa odamlar nazaridagi mavqeini anglatadi. Shaxs, guruh yoki tashkilotning avtoriteti qonuniy, rasmiy yoki norasmiy, ularning norasmiy munosabatlar tizimidagi holatiga bog`liq bo`lishi mumkin. Birinchi holatda, avtoritet subyektning ijtimoiy roliga bog`liq bo`ladi, ikkinchi holatda, unga atrofdagi odamlarning munosabatiga bog`liq bo`ladi. Aynan ana shu rol va munosabatlardan rasmiy va norasmiy liderlik tushunchasi kelib chiqadi. Shundan kelib chiqqan holda, lider -

ahamiyatli vaziyatlarda qolgan ishtirokchilarning xulqiga sezilarli tapsir ko`rsata oladigan guruh a'zosidir.

Liderlik - kichik guruhdagi dinamik jarayonlarga taalluqli bo`lib, guruhdagi bo`ysunish va hukmronlik munosabatlarini aks ettiruvchi tushunchadir. Liderlik ayni paytda obyektiv (konkret vaziyatda guruhning maqsad va vazifalari), subyektiv (guruh a'zolarinig individual tipologik xususiyatlari, qiziqishlari, extiyojlari) shuningdek liderning guruh faoliyatining tashabbuskori va tashkilotchisi sifatida harakatlari omillariga bog`liqdir.

Liderlik roli nazariyasiga ko`ra (amerikalik tadqiqotchi R.Beylz) liderlik - bu alohida rolni qabul qilishdir. Ikkita bir biridan sezilarli farq qiladigan liderlik roli mavjud.

Birinchisi - professional roli, bajarilayotgan ish yuzasidan lider tomonidan bildirilayotgan va paydo bo`lgan muammoni xal qilishga mo`ljallangan taklif va fikrlar.

Ikkinchisi - «ijtimoiy-emotsional mutaxassis» roli, shaxslararo munosabatlardagi muammolarni hal qilish bilan bog`liq bo`lgan liderlik.

Guruh faoliyatining samaradorligi uchun har ikkala liderlik shakli mavjud bo`lishi kerak.

Xususiyatlar nazariyasiga ko`ra liderlikning asosiy determinanti noyob liderlik sifatlariga ega bo`lishdir. Bu nazariyaga ko`ra ayrim odamlar tug`ma liderlik sifatlariga ega bo`ladilar. Shuning uchun ham bu nazariyaning yana bir nomi - harizmatik nazariya deb ataladi.

Interaktiv nazariyaga binoan har qanday guruhda liderlikni kim zimmasiga olishini bashorat qilish mumkin. Buning uchun guruh ag`zolari harakteristikasi, vujudga kelgan vaziyat, bajarilayotgan vazifa, shuningdek liderlikka nomzodning individual psixologik xususiyatlarini o`rganib, hisobga olish kerak.

Strategiyani qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- kichik guruuhlar shakllantirilib, ular nomlanadi; har bir guruuhdan o‘zlashtirilishi rejalahtirilayotgan mavzuga oid ikkita fikr bildirish so‘raladi;
- talabalar navbatma- navbat mulohazalarni bayon etadilar;
- so‘ngra o‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruhlarga tarqatadi;
- guruuhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o‘zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar(o‘xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi);
 - guruuh a’zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi;
 - guruuh a’zolari orasidan liderlar belgilanadi;
 - liderlar sinf jamoasini guruuh natijalari bilan tanishtiradilar;

- guruhlarning yondashuvlari umumlashtirilib yakuniy hulosa chiqariladi.

**Berilgan mavzu bo‘yicha talabalar bilishi lozim bo‘lgan
yozma javob savollari**

Bilishi lozim bo‘lgan Savollar	Berilgan savollarning mazmuni
Muloqot o‘zi nima?	
Muloqotning funsiyalarini aytинг?	
Biz muloqotni qanday amalga oshiramiz?	
Inson yuz ifodasiga qarab nimalarni bilish mumkin?	
Jilmayish va tabbassum qilish qiyin ishmi?	
Muloqot bu ehtiyojmi? Nima uchun shunday?	
Odamlar bir –biriga muloqot jarayonida qanday ta’sir ko‘rsatadilar?	
Nima uchun noverbal ya’ni nutqsiz ta’sirni eng kuchli deb bilamiz?	
Bizning muloqot qilishimiz ongimiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?	
Muloqot olib borishda kimni faol deb o‘ylaysiz, ayollarmi yoki erkaklarmi?	
Muloqotning muvafaqiyatini ta’minlovchi omil nima?	
Oltin so‘zlarni bilasizmi?	

**Berilgan mavzu bo‘yicha talabalar bilishi lozim
bo‘lgan savollarning javobi**

Egallangan bilimlarni tekshirish va baholash

Bilishi lozim bo‘lgan Savollar	Berilgan savollarning mazmuni
Muloqot o‘zi nima?	Muloqot birgalikdagi faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlanishini o‘z ichiga oladi.
Muloqotning funksiyalarini ayting?	Muloqot – shaxsning doimo insonlar davrasida, ular bilan o‘zaro ta’sir doirasida bo‘lishining eng etakchi va nufuzli faoliyatlaridan biridir
Biz muloqotni qanday amalga oshiramiz?	Muloqot yordamida odamlar bir-birlari bilan o‘zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o‘zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta’sir o’tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar.
Inson yuz ifodasiga qarab nimalarni bilish mumkin?	YUz ifodasi hissiyotlar natijasi bo‘libgina qolmay, shu hissiyotlarni paydo qilishi ham mumkin. SHuning uchun o‘zini baxtli his qilishni istagan odam ko‘proq jilmayishi kerak.
Jilmayish va tabbassum qilish qiyin ishmi?	<i>U juda arzon, lekin ko‘p narsa beradi. Kim uni olsa, uni boy qiladi, hadya etganlar esa kambag‘al bo‘lib qolmaydi. U bir necha daqiqalar davom etadi, lekin xotirada umrbod saqlanib qoladi.</i>
Muloqot bu ehtiyojmi? Nima uchun shunday?	Muloqotga bo‘lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi.
Odamlar bir –biriga muloqot jarayonida qanday ta’sir ko‘rsatadilar?	Birinchi marta ko‘rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo‘lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 58% gacha ta’sir qilarkan.
Oltin so‘zlarni bilasizmi?	Azizim, aylanay, o‘rgilay, juda ham ajoyibsiz, bugun boshqachasiz, ochilib ketibsiz, kiyimingiz juda yarashibdi kabi so‘zlardan kundalik hayotimizda ko‘proq foydalanishimiz zarur
Muloqotning elementar funksiyasi nima?	Har qanday muloqotning elementar funksiyaning bu suhbatdoshlarning bir-birlarini tushunishidir.
Muloqot olib borishda kimni faol deb o‘ylaysiz, ayollarmi yoki erkaklarmi?	Ayollar tilda aks etgan 6 ta belgini eshitishlari bilan, intonatsiyadan, tilning harakatlanishidan hali suhbatdoshlari gapini tugatmasidanoq 10 soniya ichida unga to‘la-to‘kis javob qaytara olishga tayyor bo‘ladilar. Erkaklarda esa bu qobiliyat yo‘q
Muloqotning muvafaqiyatini ta’minlovchi omil nima?	Muloqotning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko‘proq foyda keltirarkan.

1.Egallangan bilimlarni tekshirish va baholash

Egallangan bilimlarni tekshirish va baholash bo'yicha o'qituvchi trenerning amalga oshirishi lozim bo'lgan jarayonlar

TARTIBI

- 1.Talabalar bilimini baholash uchun tayyorlangan savollar hamma talabalarga tarqatiladi.
2. Ularga javob berish uchun (masalan, 45minut) vaqt beriladi.
- 3.Berilgan savol varaqlari yig'ishtirib olinadi va shu jarayonda talabalardan og'zaki ham so'raladi yoki frontal so'rov o'tkaziladi.
- 4.Hamma varaqlar yig'ishtirib olingach, javoblar oldindan echib qo'yilgan savollar bilan solishtirib ularning to'g'riligi tekshiriladi.
5. Savollarga javoblar yig'ishtirib olingandan keyin, ularning tayyor javoblari doskaga ilinib qo'yiladi yoki savollarga javoblar tayyor bo'lgandan keyin, ularni yig'ishtirib olmasdan oldin tayyor javoblar doskaga ilinadi. Har bir talaba o'zlarining bilimlarini o'zları tekshirib boradilar va baholaydilar.
6. Savollarning natijasi baholanadi. Baho besh ballik tizimda amalga oshiriladi:
 - har bir to'g'ri javob 0,33 balni tashkil qiladi;
 - agar talaba 15 ta savoldan 10 ta savolga to'g'ri javob bergan bo'lsa uning bahosi 3,3 ni tashkil qiladi;
 - baholashda raqamlar amaldagi tartib bo'yicha yaxlitlanib olinadi. Masalan, 10 ta to'g'ri javob topgan talabaning bahosi 3 ni tashkil qiladi.
 - o'qituvchi talabalar javoblariga albatta munosabat bildirishlari lozim. YUqori baho olganlarni rag'batlantirish va kam baho olganlarga tanbeh bermasdan, ularni o'qishga da'vat etish;
- 7.Og'zaki va yozma savollarga javoblar umumlashtiriladi.

"Muloqot" mavzusida Assesement texnologiyayasi foydalaniishi

TEST	MUAMMOLI VAZIYAT
1.Mashhur Amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra birinchi marta ko'rib turgan suhbatdoshda ijobiy taassurot qoldiruvchi eng kuchli omil? A)gapirgan gaplari V)paralingvistik omillar G) Noverbal harakatlар Eng yaxshi suhbatdosh u kim ? A) Suhbatda tashabbusni o'z qo'liga olib so'zlovchi V) suhbatdoshini diqqat bilan tinglovchi G) Ko'proq gapiradi, kamroq eshituvchi suhbatdos	Sizning suhbatdoshingiz siz bilan suhbatlashishga qiyalyapti, anchagini tortinchoq va qattiyatsiz. Sizning bu holatga javoban atti-h arakatlaringizni izohlab bering.
SIMPTOM	AMALIY KO'NIKMA
Muloqotning funksiyasi	Professional tinglash texnikasi bu: *Aktiv holat *Suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish *O'ychan jumlak

<p>TEST</p> <p>Mashhur Amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko‘ra birinchi marta ko‘rib turgan suhbatdoshda ijobiy taassurot qoldiruvchi eng kuchli omil</p> <p>G) noverbal harakatlar</p> <p>2. Eng yaxshi suhbatdosh</p> <p>V) suhbatdoshini diqqat bilan tinglovchi</p>	<p>MUAMMOLI VAZIYAT</p> <p>Avvalo u o‘zini erkin his qilishi uchun, o‘zim bilgan biror bir qiziq bir holatni aytib, unda ham shunga o‘xhash holat bo‘lganmi deb samimiy hazil bilan, jilmaygan holda, suhbatga tortardim va va bu iliq vaziyatdan foydalanib, uni qiziqib tinglayotgan tinlovchi sifatida ”qarang-a” “zo‘rku” “shunaqami” deb uning gaplarini tasdiqlab turgan bo‘lardim va bilan uni bemalol suhbatga kirishishiga imkoniyat yaratardim</p>
<p>SIMPTOM</p> <p>Muloqotning funksiyasi</p> <p>1.Suhbatdoshning bir-birini tushunishini ta’minlash</p> <p>2.Ijtimoiy tajribaga asos solish(Maugli misolida)</p> <p>3.SHaxsnı u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi</p> <p>4.Muloqot qilmaslik odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, xavotirlanish,o‘ziga ishonchsizlik va qayg‘u hislarini keltirib chiqaradi,o‘zi bilan o‘zi gapira boshlaydi.</p>	<p>AMALIY KO‘NIKMA</p> <p>*Aktiv holat. Suhbat davomida divan yoki kresloga yastanib yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so‘ziga qiziqayotganiningini bildirish</p> <p>*Suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish. Bu suhbatdoshni o‘ziga jalb qiladi va natijada uni ham ko‘ndirishning samarali yo‘lidir</p> <p>*O‘ychan jimlik Bu suhbatdosh gapi rayotgan paytda yuzida masuliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o‘zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo‘li</p>

Bu texnologiya orqali talabalarning qayd etgan reyting natijalari orqali o‘qituvchi talabalar mavzuni qanchalik o‘zlashtirganliklarini belgilab oladi va olgan natijalalarga qarab o‘ziga tegishli xulosalar chiqaradi.

SHuningdek bu texnologiyani talabalalarga qo‘llashdan oldin talabalar ruhiyatiga mos ravishda muloqotda bo‘la olishi, o‘tilgan mavzuni yana bir bor qisqacha takrorlash talab etiladi. O‘quv jarayonida bu kabi turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo‘llanishi talabalarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har masalaga ijodiy yondoshish, ma’suliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini, shuningdek pedagogga nisbatan hurmatini kuchaytiradi

Dars yakunida talabalarning o‘tilgan mavzu haqidagi ta’ssurotlarini bilish va fikrlarini umulashtirish maqsadida **FSMU** texnologiyasidan foydalanishni o‘rinlidir.

Ushbu texnologiyani o‘tkazish jarayonida **FSMU texnologiyasining** to‘rt bosqichi yozilgan kog‘oz varaqalarini har bir talabaga emas, balki dars jarayonida shakllangan kichik guruhlarga **FSMU** texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan katta formatdagи kog‘ozlarni tarqataman ularni to‘ldirishni iltimos qilaman

S - o‘qituvchi talaba (yoki o‘quvchi)lar bilan bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;

Vazifa. « Insoniyatning eng yuksak ma’naviy ehtiyojlaridan biri — bu muloqotga bo‘lgan ehtiyojdir!» mavzusi buyicha quyidagi fikrlaringizni bayon eting

S - kichik guruxlarga har birlari yozgan kog‘ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to‘rt bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etiladi;

F - fikringizni bayon eting;

Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko‘rinishidirki, uning yordamida odamlar o‘zaro psixik jihatdan aloqaga kirishadilar, o‘zaro axborot almashinadilar, ta’sir o‘tkazadilar,

ta'sirlanadilar, idrok etadilar, tushunish va baxolash jarayonlarini kechiradilar.

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;

Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi.

Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, inson faqat muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar

M - ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

YOlg'izlik va muloqotning etishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, havotirlanish, o'ziga ishonchszilik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. SHunisi qiziqliki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishchicha, bir necha kun o'tgach, u turgan erda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u, shu hayotsiz g'or ichidagi tanxo tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim...»

U - fikringizni umumlashtiring.

Muloqot faoliyatida har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi.

SHundan so'ng kichik guruxlarning yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida ximoya kilishlarini suraladi va muammo buyicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan dars yakunlanadi.

Egallangan bilimlarni yanada mustahkamlash va talabalarda mustaqil ishslash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida uyga vazifa berish va uy vazifasini bajarishga tayyorlash bo'yicha o'qituvchi trenerning amalga oshirishi lozim bo'lgan jarayonlar

TARTIBI

Talabalarning egallangan bilimlarni yanada mustahkamlash va ularda mustaqil ishslash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida uyga vazifa beriladi.

1. Uyga beriladigan vazifa aniq bo'lishi lozim. Bunda:

- aniq, savollar;
- shu savollarni qaerdan topishi;
- adabiyotlarning aniq ko'rsatilishi maqsadga muvofiq,

2. Bajarish shakli ham aniq bo'lishni taqozo qiladi:

- referat tayyorlash;
- konsept qilish;
- masalani echish;
- birorta tadbir ishlab chiqish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish va h.k.

1. Oldindan talabalar nima uchun baho olishini bilishi kerak. SHu tufayli ularning bajargan ishlari qanday baholanishini ham aytib o'tish maqsadga muvofiqdir.

“**Muloqot**” mavzusi da, “**Insert**” metodi, “**Muloqot**”, “**Assessment**”, “**FSMU**” texnologiyalaridan foydalanildi.

KEYS

Darsda talabaning muloqatchanligini aniqlash mumkinmi?” aniqlash mumkinmi?»

Mazkur keys oliy ta'limning barcha yo'nalishdagi 3 kurs talabalari uchun mo'ljallangan Fanning nomi: “Psixologiya”.

Mavzuning nomi “Darsda talabaning muloqatchanligini diagnostika qilish”

Berilgan keysning maqsadi: Oliy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan talabaning muloqatchanligini aniqlashdan iborat.

O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- Ta'limda muloqatchanlikning o'ziga xos tomonlarini ochib berish;
- Talabaning muloqot maromlarini egallash yo'llarini tahlil qilish;

- Ta’lim samaradorligida talabalarning muloqatchanlik jihatlarining ta’sirini aniqlash;
- Har bir talabaning muloqot malakalarini , muloqot madaniyati, ta’sir usullari , tinglash texnikasi haqidagi bilimlarini aniqlash va ularga yaxshi suhabatdosh bo‘la olish malakalarini o‘rgatish.

Keysda ishlatilgan ma’lumotlar manbai quyidagilardan iborat:

1.V.F.Ryaxovskiy tomonidan ishlab chiqilgan so‘rovnomasiga “**Muloqatchanlikning umumiyligini aniqlash**” maqsadida qo‘llanadi.

Umumiy psixologiyadan amaliy mashg‘ulotlar.– T. «O‘qituvchi»: 2001y.

Texnologik xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda keysning tavsifnomasi:

Mazkur keysdan “Psixologiya” fani bilan bir qatorda “Pedagogika. Kasbiy psixologiya”, “Kasbiy mahorat”, “Pedagogik mahorat” va “Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti” kabi fanlar bo‘yicha foydalanish mumkin.

Psixologik jarayon

Ulug‘bek – kamtarin, odobli, o‘z ustida ishlaydigan yosh ijodkor talaba. U Tasviriy san’at fakulteti 3- kurs dastgohli rang-tasvir bo‘limida tahsil oladi. Birinchi kursdan buyon yaxshi va a’lo baholarga o‘qiydi.Ulug‘bek uchun o‘qituvchilar va guruhdoshlari bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatish masalasi murakkab kechinmalar manbai hisoblanadi. U 3 –kursda ham o‘qituvchilarga quyi kurslarda qanday munosabatda bo‘lgan bo‘lsa, shunday muomala qiladi – hamisha ulardan sal tortinib, hayiqib turadi. 3- kursda Ulug‘bek ustaxonada ishlash jarayonida ustozidan ko‘p masalalarda u bilan gaplashmoqchi va o‘z fikrlarini aytmoqchi bo‘ladi , lekin bunga jur’ati etmaydi, jimgina malbert(chizish uskunasi) oldida asar ustida o‘zi ko‘p xollarda ustaxonada yolg‘iz qolib ishlashni odat qilgan. Lekin e’tiborli jihat, mashg‘ulot jarayonida ustozlariga mehr qo‘yanini, ularning tanbehlariiga g‘oyat diqqat-e’tibor bilan qarayotganini ko‘rish mumkin. Ularning har bir nigoh tashlashini, qo‘l haraktlarini kuzatib boradi. Ulug‘bek o‘z o‘rtoqlari bilan muloqotda ham qynaladi. U o‘z suhabatdoshining irodasi va kayfiyatiga juda tez berilib ketadi, kim bilan gaplashayotgan bo‘lsa beixtiyor o‘sha kishining xarakteriga moslashib qoladi; o‘zining uyatchanligidan va tevarakkat-dagi kishilarning shaxsiy xususiyatlariiga ortiq darajada diqqat-e’tiborli, u o‘z shaxsiy xulqodob qoidasini shakllantirishga jur’at eta olmaydi. Goho u xafachilikka moyil bo‘ladi va kimningdir etarli darajada mehribonchilik qilmagani uchun o‘zicha ich-ichidan hafa bo‘lib, mayus yuradi. U erkin gapira olmaydi, ehtiyyotkorlik ko‘rsatib har bir so‘zini va jumlasini necha bor o‘ylab tanlab gapirayotganga o‘xshab tuyuladi. Suhbat vaqtida u ijodiy fikrlashni va shuzahoti bir qarorga kelishni bilmaydi. Uning oldindan o‘ylab qo‘yan fikrlarigina ovoz chiqarib o‘rtoqlariga aytilgan vaqtida qiziqarli va e’tiborga sazovor bo‘lib chiqadi.

Ulug‘bek uzoq muddat aqliy mehnat qilgan vaqtlarida, garchi bu unga yoqadigan ish bo‘lsa ham, baribir u asta-sekin charchab, xorib-tolib bo‘shashib boradi.. Yangi materialni so‘zlab berayotganda u bir oz hayajonga tushadi. Eski mavzularni takrorlagan vaqtida esa butunlay boshqa holni ko‘ramiz. U o‘sha materialni puxta o‘rganib olgani uchun o‘zini juda bemalol erkin tutadi. Asosiy faktlar va g‘oyalarni egallab olganidan keyin “qolgan” gaplarni, fikr va mulohazalarni g‘oyat tiniqlik va anqlik bilan ifodalab bera oladi. Ulug‘bek qiladigan ishini bir oz muddat “tashlab qo‘yishni” yaxshi ko‘radi. Bu vaqt ichida u o‘sha ishning butun detallarigacha o‘rganib oladi. U haqda uzoq muddat o‘ylab yurishni va o‘z o‘y-fikrlarini takomillashtira borishni afzal ko‘radi. Ulug‘bek uchun xarakterli bo‘lgan aqliy mehnat topshirig‘ini qiyinchilik bilan engib o‘tish holati o‘zining ijobiyligi jihatlariga ham egadir. Bajariladigan ishni chuqur va puxta o‘ylab ko‘rilishi ana shunday ijobiyligi jihatlardandir. “Har bir asarni ishlash ustida ishni chuqur o‘ylab ko‘radi” degan ibora Ulug‘bek uchun juda mos keladi. U ba’zan javob berayotganda “kattalarga xos” fikr-mulohaza qilishi, javoblarining chuqur o‘ylab ko‘rilganligi va etukligi bilan hammani qoyil qoldiradi. U kelajakda taniqli rassom olivjanob inson bo‘lib etishishiga ishonging keladi. Unga halaqit berayotgan holat, bu uning o‘z asarlari haqida ustozlari va do‘srlariga ochiq oydin o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashib aytib berishga qynalayotganlidir.

Talabalarga beriladigan mulohaza uchun savollar

1. Ulug‘bekka xos muloqot maromlarini qanday aniqlash mumkin?
2. Ulug‘bek shaxslararo muloqotda o‘zini qanday his etadi?
3. Darsning samaradorligiga talaba muloqatchanligining ta’siri qanday?

Talabada muloqotchanlik qay darajada ekanligini aniqlash.

Vazifalar

- 1.Ulug‘bek ning dars jarayoniga bo‘lgan munosabatini aniqlash.
- 2.Darsdan tashqari paytda Ulug‘bekda muloqotchanlik qay darajada ekanligini aniqlash.

Masalani echish tartibi

1. Ulug‘bekga xos bo‘lgan temperamentni aniqlash:
 - talabaning muloqotchanligini aniqlash;
 - talabaning muloqatchanlikning umumiy darajasini aniqlash maqsadida V.F.Ryaxovskiy tomonidan ishlab chiqilgan so‘rovnoma
- 2.Jamoatchilik ichida Ulug‘bekning muomila qilish madaniyatini kuzatilishi:
 - o‘z fikrini bayon qilishga nisbatan munosabati;
 - dars jarayonida Ulug‘bekning muloqot texnikasining namoyon bo‘lishi.
3. Muloqotchanlikning dars jarayoniga ta’siri yuzasidan pedagoglarga maslahat va tavsiyalar berish.

Nazorat uchun savollar.

1. Muloqot madaniyati tushunchasiga ta’rif bering.
2. Munosabat deb nimaga aytildi?
3. Muloqotning turli shakllari yoki bosqichlari mavjud. Ularga ta’rif bering.
4. Muloqotni verbal va noverbal vositasini ta’riflang.
5. Pedagogik muloqot tushunchasiga ta’rif bering.
6. Muloqot psixologiyasining asosiy vazifalari sanab o‘ting.
7. Muloqot turlariga izoh bering hamda ularni sanab o‘ting.
8. Demokratik, avtoritar, liberal muloqot turlarini ta’riflang.

Mavzu: BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI.

REJA:

- 1.Psixologiyada boshqaruv muammolari.**
- 2. Boshqaruv psixologiyasida motivlashtirish va ehtiyoj.**
- 3. Boshqaruvda psixologiyasida rahbarlik va liderlik jihatlari.**

Asosiy tayanch tushunchalar.

Rahbar, qobiliyat, motivlashtirish, ehtiyoj, rag`bat, talab, barqarorlik, gigienik omillar, guruh, lider, su’erlider, avtoritet, avtoritar, demokratik, liberal, rahbarlik, boshqaruv jarayoni.

“Muammo” organayzerini to‘ldiring

Faoliyat natijasining samarasisligiga kim asosiy aybdor ?

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni echish yo‘llari va sizning harakatingiz
Nima uchun tashkilotda faoliyat natijasi qoniqarsiz holatga kelib qoldi ?Kim javobgar ?		

MAVZU: RAHBAR QOBILIYATINING PSIXOLOGIK KOMPONENTLARI.

REJA:

1.Boshqaruvda rahbarlik uslublari.

2.Rahbarlik va boshqarish.

3. Rahbarning o`ziga xos sifatlari.

Asosiy tayanch tushunchalar.

Rahbar, qobiliyat, motivlashtirish, ehtiyoj, rag`bat, talab, barqarorlik, gigienik omillar, guruh, lider, su`erlider, avtoritet, avtoritar, demokratik, liberal, rahbarlik, boshqaruv jarayoni.

T-chizma grafik organayzerlari

Hozirgi zamon psixologiyasining raxbarning sifatlariga doir masalalarni echimini topishga yordam beradi va “T-chizma” usuli orqali muammo hal qilinadi.

1)

Avtoritar raxbarning ijobiy sifatlari	Avtoritar raxbarning salbiy sifatlari


2)

Demokratik raxbarning ijobiy sifatlari	Demokratik raxbarning salbiy sifatlari

3)

Liberal raxbarning ijobiy sifatlari	Liberal raxbarning salbiy sifatlari

Raxbarning o`ziga xos sifatlari :(klaster usuli)



IV Glossary

Термин	Ўзбек тилидаги изоҳи	Рус тилидаги изоҳи	Инглиз тилидаги изоҳи
Модернизация Модернизация Modernization	Педагогик таълим жараёни ва педагогика фанини давр талаблари асосида янгилаш	Процесс педагогического образования и образовательной науки на основе обновления периода	Modernization of pedagogical process and pedagogical science on the basis of time requirements
Узлуксиз таълим Непрерывное образование Continuous education	Ўзаро мантикий изчиллик асосида боғланган ҳамда соддадан мураккабга қараб ривожланиб борувчи ва бир-бирини тақозо этувчи босқичлардан иборат яхлит таълим тизими	Ссылка на основе логической последовательности и простоты, в зависимости от сложности разработки и требует один шаг целостной системы образования	Integrated learning system consisting of interconnected and interconnected stages, connected by a logical sequence
Миллий модель национальная модель National model	“кадрлар тайёрлаш миллий дастури”нинг ўзагини ташкил этувчи яхлит тизим	«Национальная программа» составляет ядро всей системы	A unified system that forms the core of the National Program of Personnel Training
таълимни миллий модели, национальный модель образования, Educationnatio	Ўзбекистон республикасида таълим тизимини янгиланган соғлом педагогик тафаккур асосида тубдан ислоҳ қилиш, таълимтарбия муассасаларида	Система образования Республики Узбекистана на основе обновленного звука педагогического мышления радикальных реформ, учебные	Theoretical and methodological, practical and pedagogical approaches to radical reforming of the education system in the Republic of Uzbekistan on the

<p>нал model</p> <p>тайёранадиган кадрларни интеллектуал, маънавий ва ахлоқий савиясига кўра ривожланган мамлакатлардаги даражага етказиш бўйича белгиланган назарий- методологик, амалий-педагогик ёндошувлар мажмуи.</p> <p>Таълимнинг миллий моделида маънавий- интеллектуал жиҳатдан баркамол шахснинг ўз ижодий қобилиятини тўла намоён этишини таъминлаш кўзда тутилади.</p>		<p>заведения и персонал подготовили интеллектуальный, духовный и нравственный уровень развитых стран в соответствии с уровнем теоретико-методологического и практического набором педагогических подходов.</p>	<p>basis of up-to-date healthy pedagogical thinking, as well as bringing the cadres trained in the educational institutions to the level of developed countries at the level of intellectual, spiritual and ethical level.</p>
<p>Таълим Образования, education</p>	<p>Ўкувчи ва талабаларга билим бериш, тарбиялаш, ривожлантириш кўникма ва малакалар ҳосил қилиш жараёни, ёшларни ҳаётга ва меҳнатга тайёрлашнинг асосий воситаси</p>	<p>Школьники и студенты по развитию знаний, подготовки, навыков и квалификации, чтобы убедиться, что процесс, основным средством подготовки молодых людей к</p>	<p>The process of educating, educating, developing skills and skill in pupils and students is a major tool for preparing young people for life and work.</p>

		жизни и работе	
Тизим Система, system	Тартибга солинган, ўзаро боғланган ва таъсир кўрсатиб турадиган педагогик ҳодиса	Следственная связь между образовательным событием	A regulated, interdependent and influential pedagogical event
Таълим тизими Система образова ния, Educational system	Турли даража ва йўналишдаги ўзаро алоқадор узлуксиз таълим дастурлари ва давлат таълим стандартлари, ташкилий-хукуқий тарларидан қатъий назар таълим муассасаларининг барча тармоқлари, таълимни бошқарув органлари ва улар қошидаги муассаса ҳамда ташкилотларни қамраб олувчи тизим	Различные степени и взаимные связанные программы непрерывного образования и государственные образовательные стандарты, независимо от организационно-правового Тарлев все сектора образовательных учреждений, органы управления образования и учреждения и организации в рамках системы контейнера	Integrated continuing education programs of varying degrees and directions, and the system of inclusive education, regardless of organizational and legal status, covering all sectors of educational institutions, education management bodies and their institutions and organizations
Таълим принциплари принципы образова ния EducationPrinciples	Ёшлирга таълим-тарбия беришда таълим мақсадларига мувофиқ ўқитишнинг асосий характеристики белгилаб берувчи	По образованию молодежи в образовательных целях преподавания основных правил, которые определяют характер базы	Guidelines for determining the basic character of education in accordance with educational objectives for young people

	таянч қоидалар		
Тарбия Воспита ние Education	Шахсда муайян жисмоний, рухий, ахлоций, маънавий сифатларни шакллантиришга қаратилган амалий педагогик жараён; ёш авлодни мужассам ривожлантиришга йўналтирилган умуминсоний ҳамда миллий ижтимоий тажрибани ўқувчи ва талабаларга узлуксиў тақдим этиш жараёни	Личные определенные физические, психические, моральные и духовные образования, направленные на учебном процессе; развитие молодого поколения, сочетающее в себе человеческий и социальный опыт школьников и студентов, чтобы обеспечить непрерывный процесс	Practical pedagogical process aimed at the formation of certain physical, psychological, moral, spiritual qualities in a person; Continuous delivery of universal and national social experience to students and students aimed at the inclusive development of the younger generation
Иннова ция, Инновация innovation	Янгидан киритилган тушунчалар, тартиб-қоидалар, технологиялар ва янгиликлар	Новые концепции, процедуры и технологии новости	New concepts, rules, technologies and news
Менеж мент, Менеж мент, Management	Мавжуд минимал имкониятларда нмаксимал натижаларга эришиш мақсадида муайян ходим ёки гурӯхга таъсир этиш, улар билан ҳамкорлик қилиш жараёни	Для достижения текущего минимума nmaxsimal эффекта конкретного лица или группы лиц, они должны сотрудничать с процессом	Effect on a particular employee or team, the process of collaboration with them in order to achieve the best possible results in the existing minimum capabilities

Компетенция	Лотинчада “competo” эришяпман, муносибман, лойиқман- у ёки бу соҳадаги билимлар, тажрибага деган маъноларни англатади.	Латинская «Конкурировать» цель, достойная, loyiqman- он или средства познания, опыт работы в этой области.	In Latin, I'm gaining a "competo", meaning worthy, worthy, or knowledgeable, or experience.
Бошқарув	Бу қадимги санъат ва энг янги фандир	Это самое древнее искусство и наука	It is the oldest art and the latest fanatic
Кўпқир рали қобилият лар	Соддароқ қилиб тушунирадиган бўлсак кўпқиррали қобилиятлар деганда турли хил инсонлар турли хил услублар орқали ёки бир инсон турли хил нарсаларни турли хилда ўрганилиши тушунилади. Хоу таъкидлашича ҳеч қачон икки ўрганувчи бир хил бўлмайди: ҳар бир шахс ўзига хос қобилиятлар эгасидир	Простое объяснение многообразных навыков с помощью различных методов для разных людей означает разные вещи для человека или понять различные виды обучения. Хоу сказал, что никакие два исследования не являются не то же самое: каждый человек имеет недостаток состояние	To illustrate, it is understood that multidimensional abilities can mean that different people learn differently or in different ways. As Hoe argues, the two learners will never be the same: each person has his own abilities
Авторитар	Барча кўрсатмаларни	Все инструкции конструктивный	It sends all instructions to its

рахбар-	ишчанлик рухида, аник, равшан, кескин охангда ходимларига етказади	дух, четкие, яркие, острые навыки	employees in a business sense, clear, clear, sharp tone
Либерал (лоқайд)	Услубда ишлайдиган раҳбар - кайфиятини, ишга муносабатини, ишдан мамнун ёки мамнун эмаслигини билиш қишин. Унда таъкиқлаш, пўписа бўлмайди, унинг ўрнига, кўпинча, ишнинг охирги оқибати билан танишиш билан чекланади, холос.	Управление материальных потоков - настроение, отношение, довольное или недовольное знать, что тяжелую работу. Запрет не будет угрожать, а, по большей части ограничивается встретить конец последнего случая.	It is difficult to know how the manager working in style - mood, work attitude, satisfaction, or dissatisfaction with the job. It does not intimidate, and it is often limited to getting acquainted with the final outcome of the case.
Демократик раҳбар -	Аксинча, ўз кўл остидагиларга мустақиллик, эрк бериш тарафдори. Ишда топшириклар берганда ишчиларнинг қобилиятини ҳисобга олади, шахсий мойилликларни ҳам ҳисобга олади.	Напротив, его подчиненные, выступающие за независимость, свободу. Учитывая возможность работы в предоставлении инструкции работникам, принимая во внимание личные наклонностей.	On the contrary, he is a supporter of freedom and self-determination. She takes into account the capabilities of the worker when she gives her assignments, and takes into account individual trends.
	Муайян, аник мақсад ҳамда ижтимоий-тарихий тажриба	Цель конкретного, ясно и растет все аспекты человека на основе социального	A process of comprehensively cultivating a person, developing

Тарбия	асосида шахсни ҳар томонлама ўстириш, унинг онги, хулқ-атвори ва дунёқарашини таркиб топтириш жараёни.	и исторического опыта, сознания, поведения и перспективы процесса разработки контента.	consciousness, behavior and outlook on the basis of specific, concrete goals and socio-historical experience.
Ақлий тарбия	Илм-фан, техника ва технология борасида қўлга киритилаётган ютуқлар, янгилик ва кашфиётлардан боҳабар этиш, уларга ижтимоий ва табиий фанлар асослари хусусидаги билимларни бериш тарзида тафаккурни шакллантириш, дунёқарашини ривожлантириш;	Науки, техники и технологии достижения, инновации и открытия осведомлены о социальных и естественных науках основе знаний о формировании стиля мышления и мировоззрения развития;	Developing the world of thought and thinking in the way of science, technology and technology achievements, innovations and discoveries, teaching them the basics of social and natural sciences;
Эстетик тарбия	Эстетик ҳистойғу, эстетик дидни тарбиялаш, уларнинг ижодий қобилиятлари, эстетик эҳтиёжлари ва гўзалликни севиш, гўзалликка интилиш туйғуларини ривожлантириш, эстетик маданиятни	Эстетические эмоции, эстетическое культурное наследие их творческих способностей, потребностей развития чувства погоне за любви и красоты, красоты, культуры;	Aesthetic feelings, upbringing of aesthetic taste, love of their creative abilities, aesthetic needs and beauty, development of emotions of beauty, formation of aesthetic culture;

	шаклантириш;		
Экологик тарбия	Экологик билимлар бериш асосида шахс, жамият ва табиат бирлиги ҳамда алоқадорлигини ўқувчиларга тушунтириш, уларда экотизимнинг инсон, инсоният, жамият тараққиётидаги муҳим ўрни ва моҳияти борасидаги тушунчаларни қарор топтириш, табиатга нисбатан эҳтиёткорона ва масъулият билан муносабатда бўлиш, табиатни асраш тўғрисида ғамхўрлик қилиш каби туйғуларни қарор топтириш, шунингдек, экологик маданиятни шаклантириш;	Экологические знания о единстве личности, общества и природы, и объяснить студентам, их участие в человеческой экосистеме, важная роль в развитии человеческого общества, а также укрепить наше понимание сущности природы осторожный и ответственное отношение к уходу за сохранение дикой природы, создание таких чувств а также формирование экологической культуры;	Explanation to the reader of the individual, society and nature on the basis of the ecological knowledge, as well as the understanding of the ecosystem's role in the development of human, humanity and society, careful and responsive attitude to nature, care for nature conservation , As well as the formation of ecological culture;
Оила	Оила-эр-хотинлик иттифоқига, қариндошлик алоқаларига, умумий хўжалик юритадиган эр ва хотин, ота-она ва болалар, ака-ука	Семейный брак, семейные отношения, ЕС экономический и жена, родители и дети, братья и сестры и другие родственники,	A small social group based on relationships between family and marriage, kinship relationships, common husband and wife, parents

	ва опа-сингиллар ва бошқа қариндошлар ўртасидаги муносабатларга асосланадиган кичик ижтимоий гурух; жамиятнинг асоси, давлат қудратининг манбай.	основанные на отношениях между малой социальной группой; основа общества, источник власти государства	and children, brothers and sisters and other relatives; The basis of society is the source of state power.
Тарбия	Тарбия - муайян, аниқ мақсад ҳамда ижтимоий-тарихий тажриба асосида боланинг онги, хулқ-атвори ва дунёқарашини таркиб топтириш жараёни. Тарбия ёш авлодни муайян мақсад йўлида ҳар томонлама вояга етказиш, унда ижтимоий онг ва хулқ-атворни таркиб топтиришга йўналтирилган фаолият жараёнидир	Цель образования - конкретный, четкий и социально-исторический опыт ребенка мышления, поведение и перспектива процесса разработки контента. Цель воспитания подрастающего поколения, в частности, привести все аспекты того, каким образом общественное сознание и поведение примата процессно-ориентированной деятельности	Education is the process of creating a child's consciousness, attitude and outlook on the basis of specific, concrete goals and socio-historical experience. Education is the process of bringing up the younger generation for a specific purpose, which is aimed at the formation of social consciousness and behavior.
Дунёқараш	Дунёқараш – инсоннинг теварак-атрофини қуршаб турган воқелик тўғрисидаги, оламнинг	Перспективы на людях вокруг вокруг окружающей действительности, суть Вселенной, ее структура, ее система знаний о	The world is a system of knowledge, reality, structure, conceptions, sections, knowledge about

	моҳияти, тузилиши, ўзининг ундаги ўрни ҳақидаги қарашлар, тасавурлар, билимлар тизимиdir	роли креста,	the reality surrounding human surroundings
Мотива ция	Скот барменнинг фикрига кўра мотивация 4 та асосий категориядан иборат: фаолиятнинг ўзидаги қизиқишдан келиб чиқадиган холат – ички мотивация. Бошқа одамларни хурсанд қиласидиган холат ёки вазифа – ижтимоий мотивациядир. Ютуқ мотивацияси – бунда бошқалар билин рақобатлашиш мақсадида вазифаларни яхши бажариш. Кўмакчи мотивация – бунда мотивация рағбатлаш ёки жазолаш орқали пайдо қилинади. (jelfhelstead.	По словам Скотта мотивации барменов состоит из 4-х основных категорий: xolat- от интереса к функционированию внутренней мотивации. Или удовлетворить других людей, которые случились делать - социальную среду. Победа мотивации для выполнения задач, для того, чтобы конкурировать с другими - это хорошо. Вспомогательная мотивация – мотивация или стимулы, кажется, наказывая	According to the Scottish bartender, motivation consists of four main categories: the motivation behind the activity itself is internal motivation. The social status or motivation that other people enjoy. Winning motivation is to perform tasks well in order to compete with others. Assistant motivation - motivation is generated through encouragement or punishment

	Navigating the new pedagogy: six principles that transform teaching. 26-b.)		
Дидактика	(грекча “didaktikos” – ўқитувчи, “didako” ўрганувчи) педагогиканинг таълим муаммоларини ишлаб чиқувчи қисми.	Греческие didaktikos «» учитель «исследование didako») педагогика является частью разработчиков проблем.	Greek language "didactic" - teacher, "didako" learning) is a part of the educational problem of pedagogy.
Метод	1) табиий ва ижтимоий ҳаёт ҳодисаларини тадқиқ қилиш, билиш усули, ҳаракат қилиш тарзи; 2) мақсадга элтувчи йўл, яъни, мақсадга эришиш йўлидаги хатти-ҳаракатларнинг ўзига хослигиdir.	1) природные и социальные явления, пытаясь познать образ жизни; 2) Путь к цели, то есть специфика действий, путь к достижению этой цели.	1) prirodnye i socialnye yavleniya, pytaya pozniynye tasvir; (2) Put a clause, an est specification, a description and a description.

Касбий йўналганлик	Шахснинг аниқ бир фаолият турига бўлган қобилияти, қизиқишилари, эҳтиёжи ва қатъий ишончи (а.б. Сейтешев); 2) касб танлаш, қизиқиш, қатъий ишонч ҳамда касб танлаш мотивлари ўртасидаги алоқанинг шахсий сифатларда етакчилик қилиши (н.к. Степанкова).	Тип деятельности, который нуждается человек, интересов и твердо верит в способности (США Seyteshev); 2) выбор профессии, уверенность, интерес и выбор мотивов связи между личными качествами руководства (мобильные телефоны Štěpánková).	Ability, interests, needs and perseverance of a person for a particular activity (a. Seyteshev); 2) Leadership of choice, choice of profession, motivation and choice of occupation in private qualities (eg, Stepankova).
Дарс	Бевосита ўқитувчи раҳбарлигида муайян ўқувчилар гуруҳи билан олиб бориладиган таълим жараёнининг асосий шакли, ўқитувчи <i>раҳбарлигида</i> муайян ўқувчилар гуруҳи билан олиб бориладиган таълим жараёни.	Непосредственно к определенной группе студентов под руководством преподавателя к активному процессу обучения, проведенному группой студентов под руководством процесса подготовки учителей.	The main form of the instructional process with a specific group of students under the guidance of a teacher is a learning process conducted with a group of students under the guidance of a teacher.
Метод	Грекча тадқиқот, мақсадга эришиш ёъли, усули деганидир. Бу сўзнинг	Греческое исследование, путь к достижению этой цели, способ работы. Эта	Greek research means the way to achieve goals. The etymology of this word is reflected in

	этимологияси (келиб чиқиши) унинг илмий категория сифатидаги талқинида ҳам акс этган. “метод – энг умумий маънода – мақсадга эришиш усули, маълум тарзда тартибга солинган фаолият”.	этимология (происхождение) слова в своей категории, как передача прошла. «Метод - метод для достижения цели здравого смысла, определенных регулируемых видов деятельности».	its scientific category. "Method - in the most general sense - the method of achieving the goal, the activity that has been specifically regulated".
Семинар	Бу ўқитувчини таълим олувчилар билимларни амалий фаолиятда амалга ошириш учун зарурый шарт-шароитни таъминловчи таълимни ташкил этиш шаклидир.	Этот учитель обучен общаться с активными теоретическими знаниями с практической деятельностью, направленной на обеспечение необходимых условий для реализации формы организации образования.	This is a form of education that provides the teacher with an opportunity to communicate effectively with the learners, providing the necessary conditions for the implementation of theoretical knowledge in practical activities.
Амалий машғулот	Ўқув ишини ташкил этишнинг асосий шаклларидан бири бўлиб, экспериментал тавсифдаги мустақил топшириқларни талабаларнинг профессор-	Обучение является одной из основных форм экспериментальной работы независимых задач, описанных студентов, преподаватели отражают соответствие с	One of the main forms of the curriculum is the independent tasks of the experimental character, reflecting the joint work of the students with the professor-teacher

	ўқитувчи билан биргаликда бажаришини ўзида акс эттиради.		
Мустақил иш	Ўқитувчининг топшириғи ва унинг раҳбарлигига ўқув вазифасини ҳал этадиган таълимни ташкил этиш шакли.	Задача и обязанность подготовки руководства учителя, которые будут формировать организацию образования.	The way in which the instructor's assignment and the way he organizes his / her educational work are under his / her supervision.

V.ILOVALAR

1. Fan dastur

Педагогика, психология

Файл доступ

Барнабеков 50-00 Стартовый курс по педагогике

Барнабеков 50-00 Стартовый курс

Толе Нурлан 51000 - Кабельная

Толеев 109

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

JITIMOIV FANLAR KAFEDRASI



PEDAGOGIKA.PSIXOLOGIYA
FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI

Ta'lif sohasi: 510000 – Sog'liqni saqlash
110000 - Pedagogika

Ta'lif yo'nalishi: 5111000 – Kasb ta'limi (5510500-Farmatsiya
(farmasevtika ishi))

Umumiy o'quv soati - 65

Shu jumladan:
Ma'ruba - 18 soat (3semestr)
Amaliy mashg'ulot -18 soat (3semestr)
Mustaqil ish - 29 soat (3 semestr)

TOSHKENT – 2020

Fanning o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2019 yil "25" 04 dagi 107-sonli buyrug'i bilan (buyruqning 3-ilovasi) tasdiqlangan "Pedagogika. Psixologiya" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fan dasturi Toshkent farmatsevtika instituti Kengashining 2020 yil "07.07" dagi 12-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

L.B.Sultonova
D.O.Kamolova

Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

A.S.Kaldibekova

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
"Umumiy pedagogika" kafedrasi dotsenti, p.f.n

A.I.Rasulov

O'zbekiston milliy universiteti Psixologiya kafedrasi
dotsenti, Psixologiya fanlari nomzodi

Z.O.Mamatqulov

Sanoat farmatsiyasi fakulteti dekanı
2020 yil "30.06" №11

K.K.Ismailov

Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri
2020 yil "30.06" №20



TOSHKENT – 2020

KIRISH

2. *O'quv fani o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar*

“Pedagogika. Psixologiya” fani talablarni nazariy bilimlar, amaliy ko’nikmalar, pedagogik hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakillantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yildi. **Talaba:**

- “Pedagogika. Psixologiya” fanlar tizimi tuzilishi, fanning mohiyati, ularning rivojlanish istiqbollari haqida;
- umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lism – tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;
- uzlusiz ta'lim tizimini yanada rivojlanirish muammolarini hal etish;
- pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish;
- ta'limning pedagogik qonuniyatları hamda tamoyillariga tayangan holda tegishli qarorlar qabul qilish;
- “ Pedagogika. Psixologiya”ning tarmoqlari, tamoyillari, mexanizmlari, kategoriyalari **haqida tasavvurga ega bo'lishi**;
- “Pedagogika. Psixologiya” nazariyasi va metodologiyasi aloqalar tizimlar, kategoriyalar, qonuniyatlar, asosiy holatlar;
- pedagogik faoliyatni rejalashtirishda, yaqin, o'rta davriy istiqbolni ko'zlab maqsad, vazifalarini belgilash;
- Psixologiya fanida psixik holatlar, bilish jarayonlari, va shaxsning individual xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

bilishi va ulardan foydalana olishi;

- Turli xil hayotiy vaziyatlarda shaxsni o'rganishda pedagogikaning har xil usullarini qo'llash;
- Pedagogik, ijtimoiy-etnik va “Kasbiyta'limmetodikasi” fanitadqiqotlarning metodlarini qo'llash;
- Talaba psixologik hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash ,psixologik muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish **-ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;**

